

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K:4/412

HASANOVA DILRABOXON MAMIROVNA

**FATIK MULOQOTNING HUDUDIIY VA IJTIMOIIY
XOSLANISHI**

**m a v z u i d a g i
magistrlik akademik darajasini olish uchun yozgan**

**MAGISTRLIK
DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar:

**S. M. MO‘MINOV,
filologiya fanlari doktori,
professor.**

Farg‘ona – 2017 yil

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
1 BOB. FATIK MULOQOT LINGVOKUL'TUROLOGIK ASPEKT SIFATIDA.	
1.1. Antropotsentrizm va lingvokul'turologiya.....	10
1.2. Fatik muloqot lingvokul'turologik aspekt sifatida.....	26
1.3. Antrapotsentrizm va o'zbek tilshunosligi.....	32
1.4. Maqto'v va fatik muloqot.....	41
Bob bo'yicha qisqa xulosa.....	45
II BOB. FATIK MULOQOTNING HUDUDIIY XOSLANISHI.	
2.1. Hudud va muloqot xulqi.....	47
2.2. Fatik muloqotning hududiy xoslanishiga tabiat va ijtimoiy muhitning ta'siri.....	50
Bob bo'yicha qisqa xulosa.....	54
III BOB. FATIK MULOQOTNING IJTIMOIIY XOSLANISHI.	
3.1. Fatik muloqotning jins bilan bog'liq jihatlari.....	55
3.2. Fatik muloqotning yosh bilan bog'liq jihatlari.....	63
3.3 Fatik muloqotning kasb-kor bilan bog'liq jihatlari.....	69
Bob bo'yicha qisqa xulosa.....	83
Umumiy xulosa.....	85
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	89

K I R I S H

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan dunyo tilshunosligi fanida XX asr matn lingvistikasi shakllangan va mustaqil yo'nalishlardan biriga aylangan davr hisoblanadi. Lisoniy hodisalarni, jumladan, muloqot jarayonini yirik masshtablarda tadqiq etuvchi mazkur soha XXI asrda yanada jadal sur'atlar bilan rivojlanib, fan oldiga yangi muammolarni ko'ndalang qo'yimoqda. Ana shunday muammolardan biri matnni antropotsentrik pozitsiyadan turib tadqiq etishdir. Bugungi kunda antropotsentrik yo'nalishning yuzaga kelishi tilshunoslikda tub burilish sifatida baholanib, bu borada ko'plab tadqiqotlar yaratilmoqda. Antropotsentrik tahlil ko'rinishlari, xususan, matn tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokul'turologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo'nalishlarida shaxs omili tadqiqot ob'ektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarning yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o'rganish hamda lisoniy faoliyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bog'liqdir.

Tilni, muloqot jarayonini antropotsentrik tadqiq etish muayyan xalqning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib berish demakdir. Zero, "Ona tili – bu millatning ruhidir"¹. O'zbek tilshunosligida yaratilgan bir qator tadqiqotlarda til millat mentalitetining in'ikosi ekanligi haqidagi ilmiy qarashlar o'zbek tili birliklarini tahlil etish orqali ko'rsatib berildi. Ana shu ilmiy qarashlarni yanada boyitish va takomillashtirish ehtiyoji mazkur magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Muloqot jarayoni va badiiy matnning antropotsentrik, xususan, kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokul'turologik jihatlari, ayniqsa, fatik muloqot nuqtai nazaridan o'rganish shu vaqtgacha o'zbek tilshunosligida maxsus tahlil qilingan emas. Bu esa ushbu mavzuni tadqiq qilish zaruratini tasdiqlaydi.

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 83.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Maskur magistrlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining F8 “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Muloqot jarayoni, matnning kognitiv-semantik xususiyatlari, olamning lisoniy manzarasini yaratishda muayyan etnosning o‘rni, tilning shaxs mentaliteti, tafakkuri, ruhiyati bilan aloqador jihatlari, badiiy matnda shaxs ruhiyati aks etishi, shuningdek, lingvomadaniy birliklar, pretsedent matnlar va nomlar, kognitiv metaforalar yuzasidan dunyo mamlakatlarining ilmiy markazlari, universitetlarida, jumladan, Kohengagen University (Daniya), Groningen University, Utrext University (Niderlandiya), Sankt-Peterburg universiteti, Moskva davlat universiteti, Moskva lingvistika universiteti (Rossiya), Vitebsk davlat universiteti (Belarusg‘), Qozoq Milliy universiteti (Qozog‘iston)da keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Til va nutqni uning sohibi bo‘lgan inson omili bilan uzviylikda o‘rganish yuzasidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy va amaliy natijalar olingan: jumladan, kognitiv nuqtai nazarga ko‘ra, matn – mental tuzilmaning tilga transformatsiyasi bo‘lb, butundan qismga qarab harakatlanuvchi yaxlit tuzilmaning verbal ko‘rinishi ekanligi aniqlangan. Psixolingvistik nuqtai nazardan esa matn individning nutqiy tafakkuri mahsuli, ob‘ektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘lshi isbotlangan. Lingvokul’turologik yondashuvlarga ko‘ra, til va madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va uni rivojlantirish xususiyatiga ega ekanligi, bunda u ham madaniyat mahsuli, ham uning mavjudligining asosiy sharti sifatida madaniyat qiyofasini belgilovchi, uning vorisiyligini ta’minlovchi omil vazifasini bajarishi tadqiq etilgan. Tarkibida o‘xshatishlar, metaforalar, maqol va frazeologik

birliklar, nutqiy etiketlar bo'lgan matnlar o'zida milliy-madaniy qadriyatlarni tajassum etgan lisoniy-madaniy fenomen sifatida o'rganilgan.

Shaxs omiliga alohida e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda muayyan etnos tilining lingvokul'turologik xususiyatlari, olam manzarasini yaratishda tilning o'rni, matnning kognitiv-semantik xususiyatlari, xususan, voqelikni kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirish, shuningdek, matn yaratilishida shaxs psixologiyasi omili kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Struktur tilshunoslik o'z e'tiborini, asosan, tilni immanent holda o'rganishga qaratdi. Tilshunoslikda antropotsentrik paradigma mazkur kamchilikni to'ldirishga qaratilgan harakatlar natijasida yuzaga keldi².

Dunyo tilshunosligida til va madaniyat, til va inson omili, til va tarix masalalariga dastlab V.fon Gumbol'dt, A.Vaysgerber, L.Blumfil'd, E.Sepir, Boduen de Kurtene, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov kabi Yevropa va rus tilshunoslari e'tibor qaratgan. Psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokul'turologiya sohalarining yuzaga kelishi yuqoridagi tadqiqotlarda tilga olingan inson omili masalasini yanada chuqurlashtirdi.

Jahon tilshunosligida muloqot jarayoni va matnni antropotsentrik paradigma asosida o'rganish, asosan, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokul'turologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi. Xususan, N.Xomskiy, U.CHeyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Yu.N.Stepanov, I.R.Gal'perin, N.I.Karaulov, N.I.Jinkin, A.A.Leont'ev, J.Lakoff, T.A.van Deyk, A.Vejbitskaya, Ye.S.Kubryakova, E.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Dem'yankov, V.A.Maslova, T.M.Dridze, K.F.Sedov, A.Nurmonov, N.M.Mahmudov, E.A.Begmatov, Sh.Safarov, S.Mohminov, S.Boymirzaeva, I.Azimova kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi antropotsentrizm tamoyillari asosida tadqiq etilgan. O'zbek tilshunosligida til birliklari XXI asr boshlaridan antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etila

² Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 3- жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 262-263.

boshlandi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar kognitiv tilshunoslik nazariyasi, matnning sotsiolingvistik, pragmalingvistik xususiyatlari, uning diskursiv-kognitiv jihatlarini, publitsistik matnning mazmuniiy pertseptsiyasi, o'zbek bolalar nutqining sotsiopsiolingvistik tadqiqi hamda antropotsentrik paradigmaning nazariy muammolariga bag 'ishlangan³.

Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida matnning lingvopoetik, pragmatik, derivatsion, kommunikativ, psixolingvistik va lingvokul'turologik xususiyatlariga bag 'ishlangan muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin o'zbek muloqot xulqi, o'zbek tilida yaratilgan badiiy matnlar shu vaqtga qadar fatik muloqot, antropotsentrik paradigma nuqtai nazaridan monografik aspektda tadqiq qilingan emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy- tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi quyidagi ilmiy loyihalarda o'z aksini topgan: FA-F8 – “O'zbek tili leksikasi va terminologiyasining rivojlanish tamoyillari” (2007-2011 yy.); FA-I9 – G07 – “O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati” (2011-2012 yy.); FA – F1 – GO41 – “O'zbek tili leksikasi va terminologiyasining mustaqillik davri taraqqiyotini tadqiq etish” (2012-2016 yy.).

³ Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2000 – 47 б.; Ҳақимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2001. – 283 б.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – 285 б.; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 24 б.; Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2009. – №6. – Б. 104-107; Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 320 б.; Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24; Усмонова Ш. Психоллингвистика: Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2011. – 60 б.; Раҳимов А. Тилни парадигмалар асосида ўрганиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 2. – Б. 20-25; Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллариини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 3-8; Маҳмудов Н. Фан тили ва тил фани // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 3-10; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-220; Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39; Усмонова Ш., Бекмухамедова Н., Искандарова Г. Социоллингвистика: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Университет, 2014. – 83 б.

Tadqiqotning maqsadi muloqot jarayoni, matn yaratilishi va uning mazmuniy pertsepsiyasida shaxs omilining tutgan o'rnini yoritish orqali o'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik tadqiqini amalga oshirishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun ishda quyidagicha **tadqiqot vazifalari** amalga oshirilgan:

O'zbek muloqot xulqini, o'zbek tilidagi matnlarning yaratilishi va mazmuniy pertsepsiyasiga xos xususiyatlarni kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokul'turologik nuqtai nazardan tadqiq etish;

makropropozitsiyaning voqe bo'lishini o'zbeklar muloqot jarayoni, o'zbek tilidagi matnlar misolida tahlil etish;

o'zbeklar muloqot jarayoni, o'zbek tilidagi matnlarning yaratilishida kognitiv tuzilmalarning o'zni masalasini yoritish;

fatik muloqotning hududiy xoslanishini tadqiq etish;

fatik muloqotning jins bilan bog'liq jihatlarini ilmiy tahlil qilish;

fatik muloqotning yosh bilan bog'liqlik tomonlarini aniqlash;

fatik muloqotning kasb-kor bilan bog'liq jihatlariga oydinlik kiritish;

o'zbek muloqot xulqining fatik muloqot bilan bog'liq o'ziga xos tomonlarini aniqlash ishiga baholi qudrat hissa qo'shish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida muloqot nutqi va asosan, hozirgi o'zbek tilining badiiy uslubida yaratilgan matnlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini hozirgi o'zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, psixolingvistik hamda lingvokul'turologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Magistrlik dissertatsiyamizni yozishda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ona tilini asrab-avaylash va uni rivojlantirish haqidagi ko'rsatmalari metodologik asos vazifasini o'tadi. Dissertatsiya materiallari dunyo tilshunosligida mavjud bo'lgan kognitiv tilshunoslik, lingvopragmatika, psixolingvistika, lingvokul'turologiya yo'nalishlaridagi ilmiy-nazariy qarashlar asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, kognitiv tahlil, lingvokul'turologik tahlil, introspeksiya va yo'naltirilgan assotsiativ tajriba metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda fatik muloqot lingvokul'turologik aspekt sifatida tadqiq etilgan;

fatik muloqotning milliy mentalitet bilan bog'liq tomonlari ochib berilgan;

fatik muloqotning hududiy xoslanishi muloqot nutqi va badiiy matnlar tahlili asosida dalillangan;

fatik muloqotning ijtimoiy xoslanishi, jumladan, jins, yosh, kasb-kor bilan bog'liq jihatlari har tomonlama tahlil va tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'yilgan muammoning aniq belgilanishi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyligi, antropotsentrik paradigmasda qo'llanilgan usullardan foydalanilganlik va tahlillarda o'zbek tili tabiatidan kelib chiqilganlik kabilar yordamida asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Izlanishning ilmiy ahamiyati o'zbeklar muloqot jarayonidagi, o'zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, psixolingvistik, lingvokul'turologik xususiyatlari aniqlanganligi va shu asosda o'zbek tili tizimini antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etishning nazariy asoslariga doir ilmiy qarashlar bayon etilganligida ko'rinadi. Magistrlik dissertatsiyasida keltirilgan fikr-mulohazalar o'zbek tili birliklarining antropotsentrik jihatlari yoritishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan "Nutq madaniyati", "Psixolingvistika", "Lingvokul'turologiya" kabi darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar o'zbek xalqi tafakkuri va nutq madaniyati yuksalishiga samarali ta'sir ko'rsatishga munosib hissa qo'shishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari to'g'ra ilmiy-amaliy anjumanda, xususan, 2016 yil 23 martda "Filologiyaning dolzarb masalalari" mavzuida Farg'ona shahrida o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumanida, shu yili Farg'ona o'tkazilgan internet konferentsiyada, 2017 yili

“Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzuida Farg‘ona shahrida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy mazmuni muallif tomonidan 1 ta Respublika OAK tasarrufiga kiritilgan ilmiy jurnalda chop etilgan maqola, 4 ta ilmiy maqola va tezislarda o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 95 betdan iborat.

BIRINCHI BOB

FATIK MULOQOT LINGVOKUL'TUROLOGIK ASPEKT SIFATIDA

1.1. Antropotsentrizm va lingvokul'turologiya.

O'tgan asrning oxirlarida nazariya sifatida yuzaga kelgan antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o'zida va o'zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi⁴.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumbol'dt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi⁵.

A n t r o p o t s y e n t r i z m so'zi yunoncha ant'rohos – odam hamda lotincha centrum – markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan⁶.

Antropotsentrizm termini dastlab qadimgi yunon falsafasining “Inson – koinot markazidir” degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llangan bo'lib, bu g'oya, ayniqsa, O'rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi⁷.

Tilshunoslikda til tizimini antropotsentrik nuqtai nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokul'turologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo'lgan. Antropotsentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan. O'zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari o'zida antropotsentrik

⁴ Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.

⁵ Бу ҳақда қаранг: Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.

⁶ <http://ph.ras.ru//elib/0215.html>: Новая философская энциклопедия.

⁷ Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Кўрсатилган асар. – Б. 8.

yoʻnalish tendentsiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali yetarli darajada deb boʻlmadi.

Taʼkidlash lozimki, oʻzbek tilshunosligida matnning lingvopoetik, pragmatik, derivatsion, kommunikativ xususiyatlariga bagʻishlangan muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin oʻzbek muloqot xulqi, oʻzbek tilida yaratilgan matnlar shu vaqtga qadar antropotsentrik aspektda, xususan, fatik muloqot nuqtai nazaridan yaxlit holda tadqiq qilingan emas.

Jahon tilshunosligida pragmalingvistika, diskursiv tahlil, kognitiv tilshunoslik, lingvokulʼturologiya kabi sohalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi matn yaratilishi hodisasining talqinida ham jiddiy nazariy qarashlarning paydo boʻlishiga olib keldi. Muloqot jarayoniga, matn tahliliga antropotsentrik nuqtai nazardan yondashish bugungi tilshunoslikning yetakchi yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Murakkab va serqirra hodisa hisoblangan matn tadqiqida soʻzlovchi – matn – tinglovchi (matn muallifi – matn – retsipient) dan iborat uchlik asosiy obʼekt boʻlishi lozimligi koʻplab tadqiqotchilar tomonidan taʼkidlanmoqda⁸.

Taniqli rus tilshunosi Yu.N.Karaulov til va shaxs masalalariga bagʻishlangan maqolalar toʻplamiga yozgan soʻzboshisida “har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs turadi” degan fikrni alohida taʼkidlagan edi⁹. Darhaqiqat, til va shaxs munosabatlarini yoritib berishda eng muhim manba bu matndir. Zero, u tilning barcha sathlarini mujassam etuvchi nutqiy tuzilma boʻlishi bilan birga, soʻzlovchi (yozuvchi) shaxsining lisoniy salohiyatini oʻzida toʻliq namoyon etuvchi hodisa hamdir. Matnning tashqi va ichki tuzilishini muayyan millatga mansub til sohiblarining lisoniy qobiliyatini aks ettiruvchi oʻziga xos koʻzguga oʻxshatish mumkin.

Matn tadqiqiga oid ishlarda uni yaratuvchi shaxsga eʼtiborning qaratilishi dastlab psixolingvistika va pragmalingvistika yoʻnalishidagi tadqiqotlarda koʻzga tashlangan boʻlsa, bugungi kunda jadal rivojlanayotgan kognitiv tilshunoslik,

⁸ Каранг: Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. – М., 2001. – Т.1. – С.72-81.

⁹ Каранг: Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – С. 3-8.

funksionalizm, etnolingvistika, lingvokul'turologiya, diskursiv tahlil kabi sohalar ushbu masalani tilshunoslikning markaziy muammolaridan biriga aylantirdi.

Prof. Sh.Safarov antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: "Sistem-struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning "atomistik", ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi. Sistem-struktur yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'nalishlarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo'ldi"¹⁰.

Professor N.Mahmudov esa tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritarkan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: "Tilning ana shunday ob'ektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning "Inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi" degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi"¹¹.

Bugungi kunda lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo'lgan shaxs omilini o'rganish yuqorida qayd etilgan tilshunoslik sohaları – psixolingvistika, lingvokul'turologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalolingvistika kabi sohalarda chuqurlashib bormoqda. Ayni vaqtda, tilga antropotsentrik yondashuv ushbu sohalarning eng sohnggi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda.

Tilshunoslikda e'tirof etilganidek, antropotsentrik paradigmada asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til

¹⁰ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008. – Б. 35.

¹¹ Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.

sohibiga qaratiladi¹². Aytish joizki, ilmiy paradigmaga “til sohibi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etadi¹³. Shaxs omilining tadqiqi tilshunoslik fanining psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga ham olib keladi.

“Til sohibi” tushunchasi hozirgi vaqtda, asosan, quyidagi ma’nolarda ishlatilmoqda: a) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya’ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo’lgan shaxs; b) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant; v) o’z millatining milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug‘at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs; muayyan til vakili¹⁴.

Hozirgi tadqiqotlarda tilshunoslikning turli yo’nalishlari shaxs omili masalasiga o’z xususiyatidan kelib chiqib yondashmoqda.

Matn talqini va shaxs omili masalasi matn yaratilishi va uning mazmuniy pertsepsiyasi muammolari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu masalani tadqiq etishda matn yaratuvchi shaxsnigina emas, uni idrok etuvchi shaxs – tinglovchi yoki o’quvchi omilini ham o’rganish muhimdir. Rus tilshunosi R.I.Gal’perinning fikriga ko’ra esa, qog‘ozga yozilib, hali o’qilmagan matn harakatsiz matndir¹⁵. Xususan, yozma matn o’quvchi tomonidan o’qilmaguncha harakatga kelmaydi, unda ifodalangan mazmun va pragmatik maqsad, ohang orqali yuzaga kelgan kayfiyat retsipient tomonidan tushunilmaydi va his etilmaydi.

Matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini o’rganish tadqiq ob’ektiga turli jihatlaridan, xususan, semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokul’turologik nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi.

N.I.Jinkin tahriri bilan aytganda: “Inson alohida gaplar vositasida emas, matn vositasida so‘zlaydi”¹⁶. Shu sababli ham muayyan shaxs uslubi u yaratgan

¹² Қаранг: Воркачев С.Т. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.

¹³ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 5.

¹⁴ Воркачев С.Т. Кўрсатилган мақола. – Б. 8-11.

¹⁵ Гальперин Р.И. О понятии текст // Вопросы языкознания. – Москва, 1974. – №6. – С.22.

¹⁶ Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – С. 108.

matnlar asosida tadqiq etilsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Biror yozuvchi yoki ijodkorning nutqiy uslubini uning soʻz qoʻllash yoki jumla tuzish mahorati nuqtai nazari bilan tadqiq qilish usuli bugungi kun talabiga javob bermaydi. Shu boisdan matn yaratilishi masalasini shaxs uslubini nuqtai nazaridan oʻrganish matnning lingvistik jihatlariga teranroq nazar bilan qarashga olib keladi.

Mahlumki, kognitologiya oʻz mohiyatiga koʻra semantika bilan uzviy bogʻliqdir. A.V.Kravchenkning fikriga koʻra “... kognitiv tilshunoslik oʻz oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qoʻyadi”¹⁷. Jahon tilshunosligida yaratilgan boy nazariy maʼlumotlarga suyangan holda muayyan ijodkor shaxs tilining lingvokognitiv xususiyatlarini oʻrganish oʻzbek tili sohiblarining “tafakkur grammatikasi”ni yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish oʻzbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Zero, matnda kontseptuallashtirilgan fikr ayrim hollarda etnik xarakterda ham boʻlishi mumkin¹⁸. Matn yaratilishi jarayonini tadqiq etish orqali N.I.Jinkin tomonidan qayd etilgan universal predmet kodlarining lisoniy shakl olish bosqichlarini tahlil etish mumkinki, bu bosqichlar, xususan, badiiy matn yaratuvchi shaxs faoliyatida oʻziga xos tarzda amal qiladi¹⁹. Binobarin, muayyan shaxs nutqining lingvokognitiv xususiyatlarini oʻrganish oʻzida koʻp hollarda implitsitlikni namoyon etuvchi badiiy nutq yaratilishi mexanizmiga oid koʻpgina qorongʻi va sirli “hududlarni” yoritish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda koʻplab tadqiqotchilar XXI asrni fanlar integratsiyasi asri deb hisoblamogʻdalar. Muayyan obʼekt mohiyatini yoritishda fanlararo hamkorlik oʻz natijalarini bermoqda. Bu kabi yondashuvdan murakkab mavjudot boʻlgan shaxs fenomenining nutqiy faoliyatini tadqiq etishda ham foydalanish eng toʻgʻri yoʻldir. Zero, inson nutqi uning oʻzi kabi murakkab va koʻp qirrali hodisa

¹⁷ Кравченко А.В. Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка. – Иркутск: ИГУ, 2001. – №1. – С.60.

¹⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б. 245.

¹⁹ Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982.-157с.

hisoblanadi. Bu borada tilshunoslik sohalarining hamkorligi o'z samaralarini berishi shubhasizdir.

Aytish lozimki, XXI asrning dastlabki yillarida o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi yo'alishida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi: matn lingvopoetikasi, mazmuniy pertseptsiyasi, uning pragmatik, derivatsion va psixolingvistik xususiyatlari, matn modalligi va temporalligi haqida monografik aspektdagi ishlar yuzaga keldi²⁰.

Tilshunos olim N.A.Arutyunova ta'biri bilan aytganda, "... bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyat turi, kishilarning o'zaro munosabatlarida va ular ongingning mexanizmlarida qatnashuvchi nutq; voqelik bilan munosabatda olingan matn"²¹ muammosini hamda lisoniy tafakkur egasi bo'lgan shaxs faoliyatini o'zaro aloqadorlikda tadqiq etish o'zbek tilshunosligida antropotsentrik tahlil tamoyillarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, matnni uning yuzaga kelishi, idrok etilishi va tushunilishi nuqtai nazaridan o'rganish matn haqidagi nazariy qarashlarni yanada chuqurlashtiradi. Diskursiv faoliyat egasi bo'lgan shaxs intellekti va fikrlash tarzining matn shakliga kirish jarayoni mexanizmlarini tadqiq etish esa tafakkur modellarining o'zbek tilidagi in'ikosiga xos xususiyatlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi. Fikrimizcha, bunda matnning nutq uslublariga ko'ra turlaridan biri bo'lgan badiiy matn tahlili o'zbek tilshunosligi uchun boy materiallar bera oladi.

Ko'plab tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvokul'turologiya antropotsentrik paradigmaning yetakchi yo'nalishlari hisoblanadi²². Zero, kognitiv tilshunoslik va lingvokul'turologiya juda ko'p nuqtalarda psixolingvistika bilan kesishadi. Yana shu narsani ta'kidlash lozimki,

²⁰ Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2004. – 23 б.; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 24 б.; Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 48 б.; Турниёзова Ш. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 24 б.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 45 б.

²¹ Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов.энциклопедия, 1990. – С. 136-137.

²² Қаранг: Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

tadqiq ob'ektimiz bo'lgan badiiy matn bevosita psixolingvistik omillarga ham daxldor hisoblanadi. "Psixolingvistika asoslari" kitobining mualliflari I.N.Gorelov, K.F.Sedovlarning ta'kidiga ko'ra, psixolingvistika tilshunoslikdagi antropotsentrik yo'nalishning yadrosini tashkil etadi²³. Shu boisdan mazkur tadqiqotda o'zbek tilidagi matnlarni uch jihatiga ko'ra, ya'ni kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokul'turologik xususiyatlari asosida tadqiq etish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Badiiy uslubda yaratilgan o'zbek tilidagi nasriy va she'riy matnlar tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan. O'zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokul'turologik xususiyatlari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, magsitrlik dissertatsiyasi doirasida o'zbek muloqot uslubi, o'zbek tilidagi matnlarning shaxs va u mansub bo'lgan etnos bilan aloqador barcha jihatlarini batafsil tadqiq etishning imkoni yo'q, albatta. O'ylaymizki, fatik muloqotning muloqot nutqida tutgan o'rni, matnning antropotsentrik tahlili mazkur tadqiqot bilangina cheklanib qolmaydi. Bu borada o'zbek tilshunosligida yana ko'plab tadqiqotlar yaratilishi shubhasizdir.

Bevosita ushbu paragraf mazmuni, ya'ni so'zlashuv jarayonini, matnni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari xususida to'xtaladigan bo'lsak, aytish joizki, o'tgan asrning so'nggi choragida ozining ilk qadamlarini qohygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Hozirgi vaqtda ushbu sohaning bir necha yo'nalishlari mavjud.

Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi sohadir. V.Z.Dem'yankov fikriga ko'ra, unda til tizimining axborotni qayta ishlashdagi ro'li nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi sub'ektlar – so'zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi²⁴.

²³ Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики: Учебное пособие. – М.: Лабиринт, 2001. – С. 4.

²⁴ Демьянков В.З. Процудирование, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов / Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. /Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. –С. 129-134.

Kognitiv tilshunoslik kognitiv faoliyat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir²⁵.

Kognitsiya tushunchasi ham kognitiv tilshunoslikda markaziy o'rinda turuvchi tushuncha bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda axborotni idrok etish, kodlashtirish va yaratish kabi jarayonlar tizimi sifatida izohlanadi²⁶.

Kognitiv tilshunoslikda eng faol qo'llanuvchi va turli ta'riflarga ega bo'lgan termin *kontsept* hisoblanadi. Uning kognitiv tilshunoslik, lingvokulg'turologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi²⁷. Mazkur termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillarigacha *tushuncha* so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa²⁸, uning hozirgi vaqtdagi izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengroq ma'no kasb etganini ko'rish mumkin. Jumladan, N.Yu.Shvedova kontsept bu – tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki sub'ektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi²⁹.

Prof. N.Mahmudov o'z maqolalaridan birida *kontsept* termini eng ko'p definitsiyaga ega bo'lgan termin ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Lingvokul'turologik tadqiqotlarda aynan kontseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish ham mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda kontseptning lingvokul'turologik tadqiqiga bag'ishlangan"³⁰.

²⁵ Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 47.

²⁶ Кўрсатилган луғат. – Б.51.

²⁷ Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001. – №1. – С.35-47.

²⁸ Демьянков В.З. Кўрсатилган мақола.

²⁹ Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

³⁰ Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9.

Rus tilshunosi L.V.Adonina *kontsept* terminiga bag‘ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta ta’rifini keltiradi. Shuningdek, uning ma’lumotiga ko‘ra, *kontsept* termini o‘n nuqtai nazardan tasnif qilingan. Masalan, kontsept standartlashishiga ko‘ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy kontseptlarga; qo‘llanishiga ko‘ra ilmiy, badiiy, maishiy kontseptlarga; ifodalanishiga ko‘ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy kontseptlarga bo‘linadi va h.k.³¹

Kontsept termini borasidagi fikrlar o‘zbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlangan³². Shu boisdan biz kontsept haqidagi o‘z qarashlarimiz bilan cheklanishni ma’qul hisoblaymiz. Fikrimizcha, kontsept, darhaqiqat, mental tuzilma. Lekin u ko‘p qirrali va ko‘p qatlamli tuzilmadir. Shuningdek, kontsept bir vaqtning o‘zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokul’turologik jihatlarni namoyon etadi. Zero, kontseptning kognitiv, psixolingvistik va lingvokul’turologik tadqiqotlar ob’ekti sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi. Shuningdek, biz kontseptning sub’ektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy kontseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholaymiz. Zotan, til tizimining o‘zi yuqoridagi sifatlarni o‘zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslikda lisoniy kontseptuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Lisoniy kontseptuallashtirish ob’ektiv voqelik yoki uning biror qismini til vositasida ifodalashdir. U “...inson ongida to‘plangan ma’nolarning verballashtirilgan shakli va dunyo haqidagi bilimlarining muayyan til vositasida tizimlashtirilishi bo‘lib, qisman universal, qisman milliy xarakterga ega bo‘ladi”³³.

³¹ http://rtsu.slavist.t/index.php?option=com_content&view=article&id=149&Itemid=80

³² Қаранг: Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 29012. – № 5. Б. 3-16; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 91б.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-220.

³³ Рыбникова В.А. Языковая концептуализация социума (на материале английских дидактических текстов): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2011. – 20 с.

Kognitiv faoliyatda kognitiv metaforalarning ahamiyati beqiyosdir. Kognitiv tilshunoslik asoschilaridan biri J.Lakoff o'z tadqiqotlarida metafora faqat til hodisasi bo'libgina qolmasdan, insonning bilish faoliyatida muhim o'rin tutuvchi vosita ekanligini chuqur asoslab bergan. Kognitologiya fani nuqtai nazaridan kognitiv metafora insonning o'z bilimlarini namoyon qilishi va kontseptuallashtirishi usullaridan biri hisoblanib, uning mohiyati bir ob'ektni boshqa bir ob'ekt vositasida tushunish va tushuntirishdan iboratdir³⁴.

Dunyo tilshunosligida metaforalarga oid ko'plab tadqiqotlar yaratilganiga qaramay³⁵, ushbu hodisa tilshunoslarni tobora o'ziga jalb etmoqda. Xususan, lingvokul'turologiya hamda kognitiv tilshunoslik sohalarining shakllanishi metaforalarni yanada chuqurroq o'rganish, bu hodisani tadqiq etishda metaforik mazmunli matnlarni ham e'tiborga olishni taqozo qilmoqda.

Shaxs omilini asosiy omillardan biri sifatida talqin etuvchi qarashlar ichida matn yaratilishining kognitiv talqini diqqatga sazovordir. Kognitiv talqin matn yaratilishiga "muallif – matn – matndan tashqaridagi voqelik" tamoyili asosida yondashib, unga bir vaqtning o'zida bir necha nuqtai nazar bilan qarash fikrini ilgari suradi³⁶. Jumladan: so'zlovchi maqsadining ifodasi bo'lgan matn, nutq yaratilishi mahsuli bo'lgan matn, tushunish ob'ekti bo'lgan matn, tushunish mahsuli bo'lgan matn³⁷.

Matn yaratilishining kognitiv talqiniga binoan, matn mental tuzilmaning tilga transformatsiyasidir. Bundan ko'rinadiki, ushbu talqinga ko'ra, botiniy nutqdagi bo'lajak matnga ketma-ket joylashuvchi propozitsiyalar yig'indisi sifatida emas, balki butundan qismlarga qarab harakatlanuvchi yaxlit shakl sifatida qaraladi. Ma'lumki, tilshunoslikda matnning tashqi va ichki tuzilishiga ega ekanligi e'tirof etiladi³⁸. Matnning ichki tuzilishi o'zida semantik kontsentrat,

³⁴ Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.

³⁵ Каранг: Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 512.

³⁶ Комарова Л.И. Современные подходы к изучению художественного текста // Аналитика культурологии. Электронное научное издание. ISSN, 1990. – 4045.

³⁷ Чувакин А.А. Теория текста: объект и предмет исследования // Критика и семиотика. Вып. 7. – М., 2004. – С.88-90.

³⁸ Каранг: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 45.

yadroviy mazmunni namoyon etadi. Kognitiv tilshunosning vazifasi ana shu mazmunga kognitiv asos bo'lgan mental tuzilmalarni aniqlashdan iboratdir.

Kognitiv tilshunoslik namoyandalaridan biri V.Z.Dem'yankov ma'lumotiga ko'ra, tanlangan kommunikativ strategiyadan kelib chiqib, bir axborot turli sharoitlarda har xil tarzda ifodalanishi mumkin. Inson xotirasidagi tartibga solingan axborot bilan uning verbal shakli orasida katta farq ham bo'lishi mumkin. Matn yaratilishi modullariga axborot generatori va artikulyatorlari kiradi. Nutq, xususan, matn yaratilishi nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning o'ziga xos qoidalariga ham bo'ysunadi. Voqea-hodisalarni bayon qilish sxemalari turlicha bo'lib, matn bu voqea-hodisalarning o'zaro aloqadorligiga muvofiq ravishda yuzaga keladi³⁹.

Nutq yaratilishi jarayonida so'zlovchi o'z nutqini tinglovchining reaksiyasiga qarab o'zgartirib boradi. Ta'kidlash lozimki, nutqni rejalashtirish hamda uning voqelanishi deyarli bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Inson har doim ham o'z nutqining qanday shaklda ifodalanishini oldindan bilavermaydi, chunki bir jumla yoki so'z boshqa jumla yoki so'zni aytishni taqozo qiladi. Kognitivistlar fikriga ko'ra, bu jarayon grammatik monitor qurilma (monitoring) nazorati ostida kechadi. Matn yaratilishi vaqtida shaxs tayyor lisoniy birliklar bilan bir qatorda nominatsiya strategiyalaridan ham foydalanadi. Odatda, matn yaratilishi jarayonida ikkita bosqich belgilanadi: matn tuzishni rejalashtirish (kontseptual mazmunni tartibga solish); matn generatsiyasi (tabiiy tilga transformatsiya qilish)⁴⁰.

Hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda keng tarqalgan metodlardan biri freym tahlili hisoblanadi. Lingvokognitologiyaga ko'ra, har qanday matn mahlum bir freym ifodasidir. Freym nazariyasini yaratgan olimlardan biri M.Minskiy unga shunday ta'rif beradi: "...freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda ko'p qirrali axborot o'zaro bog'langan

³⁹ Каранг: Демяньков В.З. Продуцирование, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демяньков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 129-134.

⁴⁰ Ўша ерда.

bo‘ladi”⁴¹. Binobarin, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi bo‘lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi. Bu o‘rinda shuni ham aytish lozimki, matn yaratilishi tadqiqida kognitiv tuzilmalardan biri bo‘lgan geshtal’t ham muhim o‘rin tutadi. Hozirgi tilshunoslikda mavjud bo‘lgan semantik geshtal’tlar nazariyasi tilning lug‘aviy sathini o‘rganishga tatbiq etilgan⁴². Geshtal’t hodisasini matn bilan bog‘lab o‘rganuvchi tadqiqotlar soni esa juda oz. Vaholonki, har qanday matn yaratilishi “butundan – bo‘lakka” jarayonini aks ettiradi. Prof. Sh.Safarov fikriga ko‘ra, geshtal’t va matn yaratilishini uzviylikda tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi⁴³.

Psixolingvistik nuqtai nazardan matn yaratish va uning mazmuniy pertsepsiyasi individning nutqiy tafakkuri mahsuli, ob‘ektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda matnning shakli va mazmuni muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari bilan uzviylikda tadqiq etiladi⁴⁴.

Matn idrokini dekodlash sifatida talqin etish o‘tgan asrning so‘nggi choragida e‘tiborni jalb qilgan qarashlardan biri bo‘ldi. Mashhur psixolingvist L.S.Vigotskiy “Mqshlenie i rechgh” (“Tafakkur va nutq”) kitobida (Moskva, 1982) verbal tafakkur tabiatini keng miqyosda yoritib berdi. Dekodlash nazariyasini rivojlantirishda “Jinkin maktabi” deb nomlangan yo‘nalish vakillari katta ro‘l o‘ynadilar.

N.I.Jinkin o‘z tadqiqotlarida UPK (universal-predmet kodi) haqidagi nazariyani ilgari surdi. Bu qarashlarga ko‘ra, inson nutqi dastlab uning ongida amorf – shaklsiz holatda bo‘ladi. Bu verbal shakl emas, u tasavvur holatida bo‘ladi. Bunday predmet kodi barcha millat vakillari uchun universal xarakterda bo‘lib, uni barcha tillarga tarjima qilish mumkin⁴⁵.

⁴¹ Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XIII: Когнитивные аспекты языка. – М.: Энергия, 1988. – С. 289.

⁴² Қаранг: Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 263 с.

⁴³ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 91б.

⁴⁴ Қаранг: Зорькина О.С. О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. – Новосибирск, 2003. – С. 205-210.

⁴⁵ Қаранг: Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – С. 157.

N.I.Jininning mazkur qarashini I.N.Gorelov o'z tadqiqotlarida rivojlantirib, UPK axborotni uzatish kommunikativ usullarining neyrofiziologik ko'rinishi ekanligini qayd etdi. I.N.Gorelovning fikriga ko'ra, aynan mana shu jarayon tafakkurning tilga aylanish bosqichida vositachilik vazifasini bajaradi⁴⁶.

XX asrning so'nggi choragidan jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat mahsuli bo'lgan har qanday nutqiy tuzilmani uni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs – muallif va retsipient muloqoti nuqtai nazaridan tadqiq etishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni sifatida o'rganish *diskurs* tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. O'tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Zellig Xarris tomonidan birinchi marta qo'llangan *diskurs* so'zi bugungi kunda tilshunoslikning markaziy masalalaridan birini ifodalovchi hodisani anglatmoqda.

Diskurs tushunchasi hozirgi davrda o'ta jadallik bilan sodir bo'layotgan fanlar integratsiyasini o'zida yaqqol namoyon etadi. U adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, sotsiologiya, antropologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi fan sohalarining har birida maxsus definitsiyaga ega bo'lishi bilan birga, bugungi kunda yangi yo'nalishlardan biri hisoblangan diskursiv tahlilning ham markaziy muammolaridan biriga aylandi.

Ma'lumki, *diskurs* (fr. Diskours – nutq, harakat) termini dunyo tilshunosligida bir necha ma'noda talqin qilinadi. Bu termin dastlab *bog'lanma matn* tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik *suhbat*, *dialog* tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi⁴⁷. Antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi natijasida *diskurs* termini yanada kengroq ma'noga ega bo'lmoqda. Mazkur termin ostida hozirgi kunda o'zida nolisoniy, xususan, psixologik, ijtimoiy va shaxs ongi bilan bog'liq omillarni mujassam etgan nutq tuzilmasini tushunish tendentsiyasi kuchayib bormoqda⁴⁸. Shu bilan birga, *diskurs* so'zi ifodalagan hodisani sof tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etib bo'lmasligi, bunda shaxs

⁴⁶ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 10-11.

⁴⁷ Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978. – С. 467-468.

⁴⁸ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 7-8.

omili bilan bog'liq bo'lgan bir necha fanlarning hamkorligi taqozo etilishi ham ayni kunda e'tirof etilgan haqiqatdir⁴⁹.

D i s k u r s tushunchasining bu tarzda talqin etilishiga, shubhasiz, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatdi. Diskursiv tahlil, obrazli qilib aytganda, bir necha lingvistik tahlil yo'nalishlarining kesishgan chorrahasidir. Chunki diskursiv faoliyat, ya'ni ongli tarzda nutq yaratish va uni idrok etish⁵⁰ jarayoni shaxs omilini o'rganishni taqozo etadi. Zero, har qanday nutq ko'rinishi – bu, o'zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs faoliyatining natijasidir. Ayon bo'ladiki, diskursiv tahlil nutqni shaxs faoliyati sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bu jarayon esa lisoniy faoliyatga bir vaqtning o'zida bir necha nuqtai nazardan yondashish kerakligini bildiradi. Ko'rinadiki, nutqiy tuzilmani bu tarzda o'rganish tadqiqotchiga juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berish bilan birga, uning *diskursiv tahlil* deb nomlanayotgan “chorraha”dan o'tishini ham taqozo qiladi.

Diskursiv faoliyat jarayonini o'rganmasdan turib diskurs hodisasini tushuntirib bo'lmaydi. Diskursiv faoliyat – nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni ekan, ushbu jarayon nutq yaratuvchi – muallif va uni qabul qiluvchi – retsipient shaxsi bilan uzviy bog'liqdir. Bu o'rinda diskursiv tahlil psixolingvistika, lingvokul'turologiya, lingvistik semantika va kognitiv tilshunoslikning bir nuqtada kesishishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda diskursiv tahlilning bir necha yo'nalishlari mavjud. Ulardan biri diskurs interpretatsiyasidir. Diskurs interpretatsiyasi nutq tuzilmasini “ichdan” turib tahlil etuvchi, kognitiv tilshunoslik bilan uzviylikka ega bo'lgan tahlil ko'rinishlaridan biridir. Diskursiv tahlil tadqiqotchidan ham muallif nuqtai nazarini, ham retsipient nuqtai nazarini e'tiborga olishni talab qiladi.

Diskurs interpretatsiyasi bilan shug'ullangan tadqiqotchilardan biri, mashhur gollandiyalik tilshunos T.A.van Deyk matbuot materiallari ustida olib borgan

⁴⁹ Бу ҳақда қаранг: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004.

⁵⁰ Седов К.Ф. Кўрсатилган асар. – С. 7-8.

tadqiqotlarida diskurs tahliliga oid bir qancha muhim nazariy qarashlarni yaratdi⁵¹. Shulardan biri makropropozitsiya haqidagi ilmiy qarashdir. *Makropropozitsiya* termini matnda ifodalangan ob'ektiv mazmunni aks ettiruvchi hodisadir. T.A.van Deyk so'zlari bilan aytganda, "Makropropozitsiya... diskursni tashkil etgan gaplarda ifodalangan propozitsiyalardan hosil qilingan propozitsiyadir.... u bir propozitsiyalar ketma-ketligining yana boshqa shunday yuqoriroq darajadagi propozitsiyalar ketma-ketligi bilan bog'lanishini aniqlaydi va buning natijasida diskurs yoki epizodning global ma'nosi kelib chiqadi"⁵².

Olim matnda yonma-yon kelgan gaplarning mazmunan bog'lanishini *lokal aloqa*, diskursda ifodalangan ob'ektiv mazmunni keltirib chiqaradigan bog'lanishni esa *global aloqa* terminlari bilan nomlaydi va bu ikki hodisani farqlash lozimligini ta'kidlaydi⁵³.

Darhaqiqat, matnda ifodalangan asosiy mazmun (tema, topik) alohida olingan gapdagi shunday mazmundan – propozitsiyadan tubdan farq qiladi. Makropropozitsiyani tadqiq etish tadqiqotchiga diskurs yaratilishida tafakkur va tilning munosabatini chuqurroq o'rganish, lisoniy shaxs fenomenini kengroq yoritish imkoniyatini beradi. Makropropozitsiya matnda ifodalangan gaplarning mantiqiy sintezidir. Uning qanday verbal vositalar orqali ifodalanishi nutq yaratuvchi shaxsning diskursiv qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Olimning makropropozitsiya haqidagi qarashlari publitsistik uslub materiallari misolida asoslangan bo'lsa-da⁵⁴, uni badiiy matn tahliliga ham tatbiq etish mumkin. Makropropozitsiya haqidagi bu qarash murakkab mazmuniy tuzilishga ega bo'lgan badiiy matnni tushunishning kognitiv-diskursiv jihatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Zero, har qanday nutqiy tuzilma, shu jumladan, ko'p hollarda ikkilamchi nominatsiya bilan ish ko'ruvchi badiiy matnning asosida ham mantiqiy-kognitiv asos yotadi.

⁵¹ Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 117.

⁵² Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар. – Б. 42.

⁵³ Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар.

⁵⁴ Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар.

Alohida ta'kidlash joizki, eng so'nggi tadqiqotlarda matnga integrativ nuqtai nazardan yondashish fikri ilgari surilmoqda. Jumladan, Ye.Yu.Bajenovaning fikriga ko'ra, matnga bir vaqtning o'zida kommunikativ, kognitiv va funktsional nuqtai nazar bilan yondashish natijasida bu borada jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritish mumkin⁵⁵. Mazkur fikrni bugungi kunda integrativ tahlil bo'yicha yaratilgan ko'plab tadqiqotlar ham isbotlamoqda. Zotan, integrativ tahlilning ustun jihati shundaki, unda matnni bir vaqtning o'zida lingvistik va nolisoniy omillar nuqtai nazaridan tadqiq etish mumkin. Bu esa ayni hodisaning mohiyatini to'lig'icha yoritib berish imkonini yaratadi. Amerikalik tilshunos Eduard Sepir o'zining "Lingvistikaning fan sifatidagi maqomi" nomli maqolasida shunday deb yozgan edi: "Lingvistik tadqiqotlar rivojlanishi jarayonida tilshunoslik inson haqidagi fanlarni egallashda muhim qurol ekanligini isbotlamoqda va ayni vaqtda, o'z mohiyatini chuqur yoritishga imkon beruvchi bu fanlarga ham ehtiyoj sezmoqda. O'zining an'anaviy tadqiqot ob'ekti bilan chegaralanib qolgan tilshunos hozirgi davrda qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Agar unda ozgina tasavvur qila olish imkoniyati bo'lsa, tilshunoslikning antropologiya, madaniyat tarixi, sotsiologiya, psixologiya, falsafa bilan, qolaversa, fiziologiya va fizika fanlari bilan mushtarak manfaatlarga ega ekanligini inkor eta olmaydi"⁵⁶.

Mashhur tilshunosning bu so'zlari zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan integrativ tahlil to'g'risidagi bashoratdek tuyuladi. Bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, sotsiolingvistika, sotsiopsixolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, lingvokul'turologiya kabi bir qator yo'nalishlar qoh'ga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash

⁵⁵ Баженова Е.Ю. Интегрированный подход к анализу процесса порождения текста // Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – №13 (54). – С.31.

⁵⁶ Сепир Э. Статус лингвистики как наука // Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 260.

bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning shaxs faoliyati bilan bog'liq xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir.

Ayon bo'ladiki, lisoniy faoliyatni namoyon etuvchi matn xususida kognitiv tilshunoslikda mavjud bo'lgan qarashlar turli-tuman va o'ziga xosdir. Ammo ularning barchasi murakkab mavjudot bo'lgan inson (shaxs) fenomeni mohiyatiga chuqurroq yondashishga intilmoqda.

Dunyo tilshunosligidagi mazkur nazariy ta'limotlardan foydalanib, ularni rivojlantirgan holda o'zbek tilida muloqot o'rnatuvchi shaxs lisoniy faoliyatining o'ziga xos jihatlarini yoritib berish bugungi tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

1.2. Fatik muloqot lingvokul'turologik aspekt sifatida.

Fatik muloqotning lingvokul'turologik aspekt sifatidagi o'ziga xosliklari xususida so'z yurtishdan oldin f a t i k m u l o q o t ning o'zi nima, bu termin ostida nima nazarda tutidadi kabi savollarga javob topib olishga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, muloqotdan ko'zlangan asosiy maqsad kommunikanlar o'rtasida o'zaro fikr almashish bo'lsa-da, tilshunoslar o'z ishlarida uning bundan boshqa yana bir qator funktsiyalari mavjudligini aloqida ta'kidlaydilar. Muloqotning bunday muhim funktsiyalaridan biri mulozamat (manzirat) ifodalashlik xususiyatidir.

Muloqotning bu funktsiyasi tilshunoslikda f a t i k m u l o q o t (fatcheskaya kommunikatsiya) termini ostida tadqiq etiladi.

“Fatik muloqot” termini ilk bor ingliz etnologi B. Malinovskiy tomonidan qo'llanilgan. U bu terminni muloqot jarayonida ba'zan ro'y beradigan noqulay jimlik, nutqiy uzilish (pauza)ni to'ldirish uchun suhbatdoshlar o'rtasida hurmat, muloyimlik yuzasidan ishlatiladigan noinformativ muomala usuli ma'nosida qo'llaydi¹. Shundan buyon bu termin Yevropa tilshunosligida muloqot jarayonida iltifot, izzat-ikrom, takalluf ko'rsatib, suhbatdoshlar ko'nglini olish uchun qo'llanadigan muomala usuli ma'nosini anglatuvchi atama sifatida ishlatiladi. Aslida lotincha bo'lib, “gapirish” ma'nosini bildiradigan bu termin o'rnida ba'zan “sotsiativ” so'zi ham ishlatiladi².

Psixologik nuqtai nazardan fatik muloqot shartlilik xususiyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi va shu jihatdan u yarim faoliyat (kvazideyatel'nost') qisoblanadi⁵⁷. Chunki u o'ziga xos so'z o'yini bo'lib, ba'zan bir nutqiy uzilishlarning oldini olish va shu yo'sin nutqning davomiyligini, suhbatning jonli, chiroyli chiqishini ta'minlash - suhbatdoshlar ko'nglini olish maqsadida qo'llaniladi. Shu sababdan ham unda mazmundan ko'ra shakl ustunlik qiladi.

Asli arabcha bo'lgan *m u l o z a m a t*, *m a n z i r a t* so'zlari o'zbeklar nutqida kishining ko'nglini olish uchun ko'rsatiladigan iltifot, e'zoz-ikrom, takalluf ma'nosida qo'llanadi. Faqat "mulozamat"da ijobiy, "manzirat"da esa salbiy ma'no ottenkasi borligi bilan farqlanib turadi.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvokul'turologiya (*lot. lingua* – til + *lot. cultura* – ishlov berish + *yun. logos* – ta'limot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir⁵⁷. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, mazkur soha XX asrning sohnggi choragida shakllandi, "lingvokul'turologiya" termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi⁵⁸. Lingvokul'turologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumbol'dtga borib taqalishini ta'kidlaydilar⁵⁹. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xol'ts, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim ro'l o'ynaganligi ta'kidlanadi⁶⁰.

⁵⁷ Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8-9.

⁵⁸ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. – 288 с.

⁵⁹ Қаранг: Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши // Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 23-40; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – 5-сон. – Б. 3-16.

⁶⁰ Қаранг: Маслова В.В. Лингвокультурология в система гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 4. – 2004. – С. 238-243; Махмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 3-16.

Lingvokul'turologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumbol'dt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokul'turologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokul'turologiyaning rivojlanish bosqichi⁶¹.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokul'turologiyaning asosiy maqsadidir⁶². Mazkur sohaning ob'ekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokul'turologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi⁶³. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy kontseptlari majmui bo'lgan kontseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokul'turologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokontseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalarda ham o'rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokul'turologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi⁶⁴.

Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokul'turologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni

⁶¹ Маслова В.А. Лингвокультuroлогия: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

⁶² Сабитова З.К. Лингвокультuroлогия: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10.

⁶³ Сабитова З.К. Ўша китоб. – Б. 9.

⁶⁴ Сабитова З.К. Ўша китоб. – Б. 9-10.

bildiradiki, lingvokul'turologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir⁶⁵. G.G.Slishkinning fikriga ko'ra, "Lingvokul'turologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokul'turologiya markazining madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi"⁶⁶. Lingvokul'turologiyaning o'rganish ob'ekti haqidagi fikrlar borasida bir to'xtamga kelingan bo'lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo'q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokul'turologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb hisoblaydi. Shuningdek, V.N.Teliya lingvokul'turologiya ob'ekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokul'turologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi⁶⁷.

Hozirgi vaqtda lingvokul'turologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi⁶⁸. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokul'turologiya sohasining metodlari, ob'ekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokul'turologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan⁶⁹.

Lingvokul'turologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko'rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokul'turologik xususiyatlari. Bunda ko'pincha miflar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokul'turologik kontsept

⁶⁵ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1996. – С. 222.

⁶⁶ Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С. 128.

⁶⁷ Бу ҳақда қаранг: Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2011. – 176 с.

⁶⁸ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

⁶⁹ Маслова В.А. Кўрсатилган ўқув қўлланма.

ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, frantsuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokul'turologiyaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokul'turologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Lingvokul'turologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Masalan, Z.I.Solievanning nomzodlik ishi o'zbek va frantsuz tillaridagi sententsiya, ya'ni axloqiy-tahlimiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan⁷⁰.

Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokul'turologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokul'turologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin⁷¹.

Maqolada lingvokul'turologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokul'turologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui

⁷⁰ Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – С . 25.

⁷¹ Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

(*madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati*)” demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokul'turologiyaning o'rganish ob'ekti tamoman boshqadir”⁷².

Lingvokul'turologiyaning bevosita matn bilan bog'liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq ob'ektlaridan biri hisoblanadi. “Lingvokul'turologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: “Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. Lingvokul'turologiya esa tilni madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi”⁷³. V.A.Maslovaning, xususan, o'xshatish – matnlar haqidagi fikri ham e'tiborga molikdir. Olima o'xshatishlarning matn yartilishidagi o'rniga yana to'xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn kogerentligini ta'minlovchi vosita maqomida bo'lishini aytadi⁷⁴. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o'xshatish va uning qisqargan shakli bo'lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo'la oladi. O'xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Lingvokul'turologiyadagi matn bilan bog'liq yana bir hodisa bu pretsedent matn masalasidir. Tadqiqotchi O.E.Artemovanning so'zlari bilan aytganda, pretsedent janrlar madaniy axborotning “akkumulyatori”dir⁷⁵.

Pretsedent matnlar pretsedent birliklarning bir turi bo'lib, o'zida muayyan millat til egalariga xos bo'lgan lisoniy xotirani aks ettiradi. Hozirgi vaqtda xususan

⁷² Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 10.

⁷³ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – С. 5.

⁷⁴ Маслова В.А. Кўрсатилган асар. – С. 32.

⁷⁵ Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра “лимерик”: На материале английского языка: Дис... канд. филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2004. – С. 24.

rus tilshunosligida bu borada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. (Pretsedent matnlar haqida ishimizning 4-bobida batafsil mulohaza yuritiladi).

Lingvokul’turologiyadagi matn bilan bog‘liq yana bir masala sententsiyadir. Sententsiya axloqiy-ta’limiy xarakterdagi til birligi bo‘lib, o‘zida intertekstuallikni namoyon etadi⁷⁶.

Z.I.Salieva ingliz va o‘zbek tillaridagi sententsiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganar ekan, muayyan xalq tarixida katta o‘rin tutgan mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan didaktik g‘oyalarning yozuvchi tomonidan o‘zgargan shaklda ifodalanishini intertekstuallikning bir ko‘rinishi sifatida baholaydi. Tadqiqotchi bunga misol sifatida Oybekning “Navoiy” romanida Navoiy tomonidan aytilgan didaktik mazmunli matnlarni keltiradi⁷⁷. Bu xususiyatni o‘zbek tilida yaratilgan boshqa asarlarda ham ko‘rish mumkin.

Ma ‘lumki, lingvokul’turologiyada L.Vaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan olamning lisoniy manzarasi tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo‘lgan tuzilishi, olamni idrok etish va kontseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usulidir⁷⁸. Har bir tabiiy til olamning o‘ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi.

Fikrimizcha, matn-o‘xshatishlar, matn-metaforalar hamda tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo‘lgan matnlarni o‘rganish muayyan etnosga xos bo‘lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.

1.3. Antropotsentrizm va o‘zbek tilshunosligi.

XXI asrning dastlabki yillaridan o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosida bajarilgan tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ishlar, asosan,

⁷⁶ Сентенция хақида қаранг: Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – 25с.

⁷⁷ Салиева З.И. Кўрсатилган автореферат. – Б. 14.

⁷⁸ Қаранг: Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. –Б. 3-12.

sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika, psixolingvistika yo‘nalishlarida amalga oshirildi. Bu tadqiqotlar, garchi ularda aynan antropotsentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo‘lsa-da, o‘zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki ishlar hisoblanadi. Jumladan, S.M.Mo‘minovning “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o‘zbeklarning o‘ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etilgan⁷⁹.

Tadqiqotdan muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari haqida, shuningdek, uning inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog‘liqligi xususidagi qarashlar ham o‘rin olganki, buni til tizimiga antropotsentrik yondashuv sifatida baholash mumkin. Olim, jumladan, shunday yozadi: “MX (muloqot xulqi – D.H.) muammosini milliy xarakter, millat aholisining o‘ziga xos urf-odatlar, qadriyat va an‘analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o‘rganish mumkin emas. Chunki MX millat xarakterining uzviy bir qismi bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir”⁸⁰.

S.M.Mo‘minov o‘z tadqiqotida muloqotning psixolingvistik aspektini tahlil qilar ekan, tilning insonga ta’siri uning vazifalaridan biri ekanligini ta’kidlaydi: “Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog‘liqdir. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga ta’sir etgan har qanday narsa tanaga ham tahsir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofiziologik aspektini tashkil etadi”⁸¹.

Olim XX asrning 2- yarmidan ijtimoiy fanlarning o‘zaro yaqinlashganligi natijasida sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika kabi tutash fanlar yuzaga kelganligini ta’kidlar ekan, “inson nutqini fanlarning mana shu kabi tutash nuqtasida tadqiq etish” fikrini ilgari suradi⁸².

⁷⁹ Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2000. – 47 б.

⁸⁰ Мўминов С.М. Кўрсатилган автореферат. – Б. 36.

⁸¹ Мўминов С.М. Кўрсатилган автореферат. – Б. 19-20.

⁸² Мўминов С.М. Кўрсатилган автореферат. – Б. 10.

Prof. Sh.Safarovning 2006 yilda nashr qilingan “Kognitiv tilshunoslik” nomli monografiyasi bu sohaga oid nazariy qarashlarning o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim qadam bo‘ldi⁸³. Muallif ta’kidlaganidek, risolaning maqsadi “o‘zbek o‘quvchilarini kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolari, tadqiq metodlari bilan tanishtirish”⁸⁴dan iborat. Ushbu asarda kognitiv tilshunoslikning predmeti va vazifalari, kontseptning lisoniy voqelanishi jarayoni, stsenariy, skript, freym, geshtal’t kabi kognitiv tuzilmalar, shuningdek, lisoniy-kognitiv faoliyatning milliy-madaniy xususiyatlari hamda lisoniy hodisalarning kognitiv tahlili haqida dunyo tilshunosliklarida mavjud bo‘lgan nazariy qarashlar haqida bahs yuritiladi. Risola umumnazariy aspektda yozilgan bo‘lib, kognitiv tilshunoslik yo‘nalishida tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kitobning muhim nazariy jihatlaridan biri shundaki, unda til va tafakkur munosabati milliy mentallik va milliy madaniyat tushunchalari bilan uzviylikda tahlil qilingan. Sh.Safarov, jumladan, bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: “Tilning tafakkur bilan aloqasini hozircha hech kim inkor etgan emas (hatto bunga harakat ham qilingan emas). Biroq til va tafakkur aloqasini “teng huquqli hamkorlik” darajada ko‘rmoq kerak. Aslida, tilga ham, tafakkurga ham ta’sir o‘tkazadigan madaniyatdir”⁸⁵.

Prof. A.Mamatov tomonidan e’lon qilingan “Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?” nomli maqolada ham kognitiv tilshunoslikning vazifasi va unga oid tushunchalarning lingvistik mohiyati haqida fikr yuritilgan⁸⁶. Maqolada N.Xomskiy, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jekendof, Ch.Fillmor, Ye.S.Kubryakova, Ye.D.Raxilina, V.N.Teliya, Z.D.Popova, N.Yu.Shvedova, N.F.Alefirenko kabi tilshunoslarning kognitiv tilshunoslikning asosi bo‘lgan prototip, stsenariy, freym, kontseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, kontseptosfera kabi terminlar borasidagi fikrlari tahlil etilgan. Ushbu maqola ham umumnazariy aspektda yozilgan bo‘lib,

⁸³ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.

⁸⁴ Сафаров Ш. Кўрсатилган китоб. – Б. 6.

⁸⁵ Сафаров Ш. Кўрсатилган китоб. – Б. 70.

⁸⁶ Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219.

kognitiv tilshunoslik “alifbosi”ga oid fikrlarni umumlashtirish maqsad qilib olingan⁸⁷.

Matnning kognitiv tahlili borasida S.Oh.Boymirzaevaning doktorlik dissertatsiyasi muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotning 1- bobi 2- bo‘limi “kognitiv tilshunoslikka xos tadqiq usullarini matn tahliliga tatbiq qilish masalasiga bag‘ishlanadi”⁸⁸. Muallif matnni kognitiv-diskursiv jarayon sifatida baholab, lisoniy voqelanish negizida kognitiv tuzilmalar turishini ta’kidlaydi⁸⁹.

O‘zbek tilshunosligida matn antropotsentrik paradigma asosida tahlil etilgan dastlabki ishlardan biri I.A.Azimovanning “O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi” nomli dissertatsiyasi hisoblanadi⁹⁰. Tadqiqotda asosiy e’tibor “matnni tushunishga ta’sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni psixolingvistik tajribalar asosida aniqlash, matnning mazmuniy pertsepsiyasidagi birliklarni aniqlash va ularning formal-semantik xususiyatlarini tahlil qilish”ga⁹¹ qaratilgan. Olima yo‘naltirilgan assotsiativ tajriba usuli yordamida gazeta matnlari pertsepsiyasi bo‘yicha quyidagi darajalarni belgilaydi: assotsiativ daraja, leksik-morfologik daraja, kontekstual daraja, struktural daraja va matn darajasi⁹². Tadqiqotchi bunda “stimul matndagi lisoniy omillar, matndagi so‘zlarning aynan eslab qolinishi, eslab qolingan so‘zlarning kontekstual mahnolarining konkretlashishi, stimul matnga xos mazmuniy strukturaning shakllanishi va yaxlit matn proektsiyasining hosil bo‘lishi”⁹³ni matn idrokidagi asosiy jarayonlar sifatida belgilaydi. I.A.Azimovanning fikricha, so‘z, so‘z shakli, so‘z birikmasi va sintagma matn mazmuniy pertsepsiyasidagi birliklar hisoblanadi⁹⁴.

Iroda Azimovanning mazkur ishi o‘zbek tilshunosligida gazeta matnlari pertsepsiyasi birinchi marta psixolingvistik tajribalar asosida tadqiq etilganligi

⁸⁷ Маматов А.Э. Ўша мақола. – Б. 213.

⁸⁸ Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2010. – Б. 10-11.

⁸⁹ Боймирзаева С.Ў. Кўрсатилган автореферат.

⁹⁰ Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 24 б.

⁹¹ Азимова И.А. Кўрсатилган автореферат. – Б. 4.

⁹² Азимова И.А. Кўрсатилган автореферат. – Б. 20.

⁹³ Азимова И.А. Кўрсатилган автореферат. – Б. 11-12.

⁹⁴ Азимова И.А. Кўрсатилган автореферат. – Б. 13.

bilan e'tiborga molikdir. Tadqiqot o'zbek tilshunosligida matnni psixolingvistik tahlil etishga doir navbatdagi ishlar uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan muayyan ahamiyat kasb etadi.

M.X.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektda tadqiq etildi⁹⁵. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushbu yo'nalishning tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o'zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan⁹⁶. M.X.Hakimovning mazkur tadqiqoti hozirgi vaqtda antropotsentrizmning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvistik pragmatikaga doir tushuncha va terminlarning o'zbek tilshunosligidan o'rin olishida muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot, xususan, nutqiy akt nazariyasi hamda matnning pragmasemantik masalalarini yoritib berganligi bilan e'tiborga molikdir. Dissertatsiyada garchi *lingvokul'turologiya* termini qo'llanmagan bo'lsa-da, lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib berishda muhim ro'l o'ynashi alohida ta'kidlanadi: "Millatga bo'lgan hurmatning asl namunasi sifatida tilimizga davlat tili maqomining berilganligi o'zbek tili va unga xos milliy xususiyatlarni o'rganishga dunyo xalqlari intilishining qiziqishi pragmatika nazariyasiga, uning mohiyatiga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda. Sababi lingvistik pragmatika nazariyasi, ya'ni nutqning amaliy qo'llanishi bilan bog'liq hodisalar talqini o'sha tilga xos milliy o'ziga xoslikni anglash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi"⁹⁷.

O'zbek tilshunosligida pragmalingvistika yo'nalishining rivojida prof. Shahriyor Safarovning "Pragmalingvistika" nomli monografiyasi alohida o'rin tutadi⁹⁸. Monografiyada Sh.Safarovning til va nutq dixotomiyasi, lisoniy faoliyat, lisoniy qobiliyat, diskurs kabi tushuncha va terminlar haqidagi jahon

⁹⁵ Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2001. – 283 б.

⁹⁶ Ҳакимов М.Х. Кўрсатилган диссертация. – Б. 8.

⁹⁷ Ҳакимов М. Кўрсатилган диссертация. – Б. 256.

⁹⁸ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси", 2008. – 285 б.

tilshunosligida mavjud fikrlarga shaxsiy munosabati yaqqol sezilib turadi. Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati prof. Abdulhamid Nurmonovning “Immanentlikdan kognitivlikka” nomli maqolasida chuqur asoslab berilgan⁹⁹. A.Nurmonovning ta’kidiga ko’ra “... monografiya yuqori saviyada yozilgani bilan ajralib turadi va o’zbek tilshunoslarini tilshunoslikning yangi yo’nalishi bo’lgan pragmalingvistika muammolari bilan chuqur va atroflicha tanishtiradi. Asarda pragmalingvistikaning nazariy masalalarini yoritishda muallif bir qator shaxsiy mulohazalarini o’rtaga tashlaydiki, bu mulohazalar, shubhasiz, umumiy tilshunoslik nazariyasini yangi qarashlar bilan boyitish uchun xizmat qiladi”¹⁰⁰.

Eng keyingi davrlarda o’zbek tilshunosligida bevosita antropotsentrik tilshunoslikka doir ishlar yuzaga keldi. Xususan, bugungi kunda uning muhim sohalaridan biri bo’lgan lingvokul’turologiyaga bo’lgan qiziqish ortganligini kuzatish mumkin. Jumladan, “O’zbek tili va adabiyoti” jurnalida N.Mahmudov, E.Begmatov, A.Nurmonovlarning ushbu sohaga aloqador bo’lgan maqolalari e’lon qilindi¹⁰¹.

Prof. N.Mahmudovning “O’xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli” nomli maqolasi o’zbek tilidagi turg’un o’xshatishlarning til va nutqqa munosabati tayin etilganligi, shuningdek, ularning “milliy obrazli tafakkur tarzini namoyon etadigan birliklar”¹⁰² sifatida ta’riflanib, bu kabi obrazli birliklarning lingvokul’turologik xususiyatlarini o’rganish muammosi qo’yilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. N.Mahmudov bu boradagi fikrlarini “O’zbek tili o’xshatishlarining izohli lug’ati”ga yozgan so’zboshisida yanada chuqurlashtirdi¹⁰³.

Keyingi yillarda antropotsentrizmning umumnazariy masalalariga bag’ishlangan bir qator maqolalar ham e’lon qilindi. Prof. N.Mahmudovning

⁹⁹ Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти- Тошкент, 2009. – № 6. – Б. 104-107.

¹⁰⁰ Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 107.

¹⁰¹ Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 19-24; Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39; Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизм назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 10-19.

¹⁰² Махмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 23.

¹⁰³ Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Махмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изохли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 3-10.

“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” sarlavhasi bilan e‘lon qilingan maqolasida o‘zbek tilshunosligida ilk marta antropotsentrizm paradigmasi va unga aloqador muammolar haqida chuqur ilmiy asosga ega bo‘lgan mulohazalar bayon etildi¹⁰⁴. Maqola o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma borasidagi ilmiy tushunchalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqola muallifi “paradigma” terminining ilmiy talqinlariga munosabat bildirib, bir paradigmani boshqa paradigmaga qarshi qo‘yish to‘g‘ri emasligini ta’kidlaydi¹⁰⁵. N.Mahmudovning fikricha, “antropotsentrizm tilshunoslar tomonidan faqat til tadqiqigagina nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antropotsentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir”. ... antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi”¹⁰⁶.

Prof. E.Begmatov 2013 yilda e‘lon qilgan maqolasida o‘z e‘tiborini “antroponimik birliklarda antropotsentrik usul uchun material bera oladigan xususiyatlar”ni¹⁰⁷ aniqlashga qaratgan. Olimning ta’kidiga ko‘ra, “antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bog‘liq ekanligi, ularda insonning ehtiyoji va ijodi namoyon bo‘lishi, inson nomida qadimiy davr kishilarining madaniy-ma’naviy va etnik qarashlari o‘z ifodasini topganligi, umuman, ismlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmushi bilan bog‘liq ekanligi” ularni antropotsentrik paradigma asosida o‘rganish uchun asos bo‘la oladi¹⁰⁸.

Prof. A.Nurmonov esa o‘z maqolasida lingvistik nisbiylik va lingvistik determinizm nazariyalari haqidagi mulohazalarini bayon etar ekan, til va madaniyat aloqasiga oid munosabatini ham bildirib o‘tadi. Olim lingvistik nisbiylik nazariyasi asoschilari B.Uorf va E.Sepirning til va tafakkurning

¹⁰⁴ Маҳмудов Н. Тилининг мукаммал тадқиқи йўллари излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 5-16.

¹⁰⁵ Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 3-5.

¹⁰⁶ Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 6.

¹⁰⁷ Бегматов Э. Кўрсатилган мақола.

¹⁰⁸ Бегматов Э. Кўрсатилган мақола. – Б. 37.

madaniyat shakli ekanligi¹⁰⁹ haqidagi fikrlarini e'tirof etish bilan birga tillar o'rtasida umumiy tomonlar ham bor ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: "har bir tilda xalqning ruhi, milliy madaniyati, o'ziga xos dunyoni ko'rish, idrok etish tarzi namoyon bo'lish bilan birga, tillar o'rtasida obraz yaratishdagi shunday umumiy jihatlar borki, bular umuminsoniy tafakkur mahsuli sifatida yuzaga chiqadi"¹¹⁰.

Prof. A.Nurmonovning fikriga ko'ra, til va madaniyat o'rtasida aloqani tadqiq etgan olimlar 3 ta guruhga bo'linadi: "Birinchi yo'nalish V.Gumbol'dt, E.Sepir va B.Uorf nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular til va tafakkur, til va madaniyat munosabatida tilni belgilovchi kuch deb hisoblaydilar"¹¹¹. Olim bu qarashni biryoqlama deb hisoblaydi. Jumladan, u shunday deb yozadi: "... nominatsiyaga asos bo'lgan obraz markazini idrok qilishda turli tipdagi tillarda o'ziga xos umumiy jihatlardan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Bu ham lingvistik nisbiylik nazariyasining olamni idrok qilishda tilning roli ustuvor ekanligi haqidagi xulosasi biryoqlama ekanligidan dalolat beradi"¹¹².

A.Nurmonovning fikricha, til va madaniyat munosabati haqidagi ikkinchi nuqtai nazarda bu ikki hodisa o'rtasidagi aloqa tamoman inkor etiladi. Olimning qarashiga ko'ra, ushbu masala haqidagi uchinchi nuqtai nazarda yuqoridagi ikki qarama-qarshi fikrlar o'zaro sintezlanadi¹¹³. Jumladan: "... til va madaniyat o'zaro bog'liq va ayni paytda farqli hodisalardir. Til va madaniyat munosabatida tilning roli katta. Har bir xalqning o'ziga xos etnomadaniyati uning tili orqali ifodalanadi. Lekin ob'ektiv borliqda ana shu etnomadaniyat mavjudligi uchun u tilda o'z ifodasini topadi. Demak, til va madaniyat munosabatida ham *ob'ektiv borliq – ong – til* munosabati amal qiladi"¹¹⁴.

O'zbek tilshunosligining taniqli vakillari tomonidan yozilgan yuqoridagi uch maqola tilshunosligimizga lingvokul'turologik tahlillar endigina kirib kelayotgan

¹⁰⁹ Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 12.

¹¹⁰ Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 18.

¹¹¹ Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизм назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 10-19.

¹¹² Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 15.

¹¹³ Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 15.

¹¹⁴ Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 18.

hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi va ayniqsa, ular yosh tadqiqotchilar uchun yoʻnaltiruvchi xususiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir.

Tilshunos olim A.Rahimovning tilni paradigmalar asosida oʻrganishga bagʻishlangan maqolasida ham antropotsentrik paradigmaga munosabat bildirilgan¹¹⁵. Olimning fikriga koʻra, “Tilshunoslik fani tarixidagi uchinchi makroparadigma **antropotsentrik paradigma (kommunikativ yoki nominativ-pragmatik paradigma)** deb hisoblanadi. Ushbu paradigma tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida oʻrganuvchi, boshqa sistemalar – jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabilar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yohnaltirilgan qarashlar, gʻoyalar va tahlilotlar majmuidir”¹¹⁶.

A. Rahimov til va ijtimoiy hayotning turli sohalari oʻrtasidagi aloqani yoritishda inson “oltin koʻprik” vazifasini oʻtaydi”¹¹⁷, deb hisoblaydi. Tadqiqotchining fikricha, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, neyrolingvistik, pragmatik va lingvokul’turologik paradigmalar antropotsentrik paradigma tarkibiga kiruvchi miniparadigmalar hisoblanadi¹¹⁸.

Oʻzbek tilshunosligida matnni antropotsentrik jihatdan tadqiq etishga qaratilgan ishlar ichida D.Xudoyberganovanning “Oʻzbek tilidagi matnlarning antropotsentrik talqini” nomli dotkorlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega¹¹⁹. Mazkur dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, unda oʻzbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, psixolingvistik, lingvokul’turologik xususiyatlari aniqlangan va shu asosda oʻzbek tili tizimini antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etishning nazariy asoslariga doir ilmiy qarashlar bayon etilgan. Dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohazalar oʻzbek tili birliklarining antropotsentrik jihatlarini yoritishda ilmiy manba sifatida xizmat qiladi¹²⁰.

¹¹⁵ Раҳимов А. Тилни парадигмалар асосида ўрганиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 2. – Б. 20-25.

¹¹⁶ Раҳимов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 24.

¹¹⁷ Раҳимов А. Ўша ерда.

¹¹⁸ Раҳимов А. Ўша ерда.

¹¹⁹ Худоберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф – Тошкент, 2015. –102 б.

¹²⁰ Худоберганова Д.С. Крсатилган автореферат. 9- б..

1.5. Maqto'v va faik muloqot.

Kommunikatsiyadan ko'zlangan asosiy maqsad kommunikantlar o'rtasida o'zaro fikr almashish bo'lsa-da, tilshunoslar o'z ishlarida uning bundan boshqa yana bir qator funktsiyalari mavjudligini alohida ta'kidlaydilar. Kommunikatsiyaning bu funktsiyasi tilshunoslikda *f a t i k k o m m u n i k a t s i y a* (fatcheskaya kommunikatsiya) termini ostida tadqiq etiladi.

Ushbu bo'limda biz fatik muloqotning maqto'v bilan bog'liq tomonlari haqida fikr yuritamiz.

Erkak kishi dunyoga kelgan chog'ida "go'dak" deb atalgani kabi, maqto'vning "bolaligi"ni "erkalash" deb ataymiz. Qarangki, bu so'zning o'zagi ham "er"dir. Zero, chaqalohining "er bo'lib yetishishini istagan ota-ona uni go'daklik chog'idan erkalab katta qiladi. Shuning uchun "hadis"da ham: "Kimning yosh go'dagi bo'lsa, unga go'daklarcha qiliq qilib erkalatsin!" deyilgan.

Payg'ambarlarimiz hadislarini quloqlariga quyib olgan ota-bobolarimiz bu ko'rsatmalarga qat'iy amal qilganlar va o'g'illarini "Toychog'im", "Pahlavonim" deb erkalaganlar. Bu so'zlarni eshitib ulg'aygan o'g'illar ham shunga yarasha bo'lgan. Shu boisdan bo'lsa kerak, xalq og'zaki ijodida: "Erkalatsang, er bo'ladi, yo'qsa qaro yer bo'ladi", "Qo'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz" qabilidagi hikmatli gaplar uchraydi.

Muhimi, shundaki, erkalashning afzalliklari fanda ham isbotlangan. Ya'ni olimlarning kuzatishlariga qaraganda, erklashlar og'riq qoldiruvchi vosita hisoblanar ekan. Bunday paytda qon aylanish yaxshilanib, qondagi kislorod miqdori 10 – 15 foizga oshar, qon bosimi mo'tadillashib, nafas olish yengillashar ekan. Ammo biz keyingi yillarda "erkalash" so'ziga ham salbiy tus berdik, bolalarga nisbatan "borakallo", "ko'p yashang" jumllarini ham kam qo'llaydigan bo'lib qoldik. Buning o'rniga bolalarni do'q-po'pisa, qo'rqitish, tanbeh berish bilan tarbiyalash yo'liga o'tdik. O'z holicha biror ishni boshlagan bolalarga "Qo'y, unday qilma!", "Qo'y, bunday qilma!" deyishdan boshqasini bilmay qoldik. Natijada bolalar chindan ham "qo'yga aylanadilar":

**Juda yuvoshsan deb aytaverib biz
Qo'yga aylantirdik hurkak olqorni.
Juda ishlaydi deb maqtayverib biz
Eshak qilib oldik uchqur tulporni.
Endi aytishim shart shundayin so'zlar:
Qo'ylar o'xshasinlar hurkak olqorga.
Toki bu so'zimni tinglagan kezlar
Eshaklar aylansin tag 'in tulporga.**

(Asror Mo'minov)

Bolaligidan erkalik nimaligini bilmagan, aksincha, mustaqil boshlagan har bir ishi o'sha zahotiyoq tazyiqqa uchragan o'g'il boladan katta bo'lganida qanday erkak chiqishi mumkin? Boz ustiga, "teng huquqlilik" degan "dono" shior paydo bo'lib, aksariyat o'g'il bolalar yigit bo'lgach ham o'z so'zini o'tkaza olmaydigan bo'lib qoldilar. Eng yomon tomoni shundaki, biz tenglikni huquq tengligi deb emas, oiladagi vazifa va burchining bir xilligi tarzida tushundik. Natijada oilada ayol eri bilan huquq talashadigan, ba'zi masalalarda tengma-teng olishadigan bo'lib qoldi. Oqibati shu bo'ldiki:

Huquqlari teng ayol bilan

Yashash qiynar shohrlik erkakni. (Marhabo).

O'zlarining bu fe'llari bilan ayollarimiz o'tmish donishmandlaridan birining: "Oqila rafiqam! Agar ering yoningda bo'lishini istasang, shuning payiga tushginki, toki u hech yerda sening huzuringdagi kabi rohat-farog'at va muloyimlikka duch kelmasin" deya qoldirgan dono nasihatlariga zid ish tuta boshladilar.

– Bilasizmi, erkak kishi qay mahal ko'chaga chiqib ketadi? – deydi mashhur adibimiz Abdulla Qahhor Kibriyo Qahhorova bilan bo'lgan bir galgi suhbatda. Agar qidirganini uyidan topolmasa.

Erkak kishi uyidan nimani qidirishi mumkin? Bizningcha, eng avvalo, iliqlikni, shirin kalom va muloyimlikni qidiradi. Buning uchun ayol kishidan ozgina did-u farosat bilan bir qatorda salgina kamtarlik va erga nisbatan hurmat ma'nosidagi itoat talab etiladi, xolos. Sharq ayollari azaldan mana shunday

bo'lganlar ham: "Uvaysiz yuz jafo ko'rsang, haqiqat yordin doim" qabilidagi misralar faqat Uvaysiygagina tegishli bo'lmaganligi uchun ham xalq tilidan hanuz tushmay kelayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Zero, xotin qancha itoatkor bo'lsa, u shunchalik muhabbatga sazovor bo'lgan. Shu bois: "Erдан sadoqat, xotindan itoat", - kabi maqollar dunyoga kelgan.

Islom dinida esa itoatli xotinlarga "ezgu xotinlar" ismini berib, amallari barobariga ham ko'p savoblar va'da etgandir. Itoatsiz xotinlarni "o'sal xotinlar" deb atab, dunyoda ko'rgan mashaqqatlaridan ortiq oxiratda ham bir qadar azoblar bo'lishidan xabar berilmishdir. Eng muhimi, itoatli ayollar bu dunyoda ham hech narsa yutqizmaganlar, aksincha, juda ko'p narsalarga musharraf bo'lganlar. Chunki "agar xotin o'z eriga qobiliyatli, shijoatli, muvaffaqiyatli, mo'min, sadoqatli shaxs deb muomala qilsa, er xuddi shundoq bo'ladi inoolloh." Buning yorqin dalili sifatida shoir va jurnalist Karim Bahrievning quyidagi gaplarini keltiramiz: "Turmush o'rtog'im Ilmira Nazrullo qizi meni aslimdan ham ko'ra aqlli deb hisoblaydi. Uning bu fikri yolg'on chiqmasligi uchun aqlli bo'lishga majburman". Agar buning aksi bo'lsachi, ya'ni xotin erni nazar-pisand qilmasa, uning imkoniyatlariga ishonish, hurmatini joiga qo'yish o'rniga, so'zini ikki qiladigan, ali desa, bali deb turadigan bo'lsa, erning burdi ketadi, el oldida obro'si to'kiladi. Chunki boshqalar oldida, ayniqsa, xotini, bola-chaqalari oldida so'zi o'lgan erkakning shashti, g'ururi ham o'ladi. Er yigitning uyalgani esa o'lim bilan tengdir. Shu boisdan "Eman daraxtining egilgani – o'lgani", "Yigitning so'zi o'lguncha, shaytonning bo'yni uzilsin" qabilidagi durdona fikrlar yaratilgan va xuddi shuning uchun ham ota-bobolarimiz ayollarga: "Eringizga tanbeh bermang!" deya uqtirib kelganlar.

Bulardan ko'rinadiki, maqtoov oiladagi ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishda o'ta muhim ahamiyatga ega. Olam tinch, ro'zg'orim butun bo'lsin, degan har bir ayol, eng avvalo, eriga ishonishi, hurmatini joyiga qo'yishi, qolaversa, maqtoov erlarga ham yoqishligini aslo esidan chiqarmasligi lozim.

Xullas, odamlarga izzat-ikrom, hurmat, iltifot, mulozamt ko'rsatish ehtiyojidan muloqot jaranida shakllangan faktik muloqot maqtoov bilan bevosita

bog'liq bo'lib, uni atroflicha o'rganish muloqot jaranini to'laqonli o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Bob bo'yicha qisqa xulosa

1. Til sohibi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishiga olib keldi. XX asrning 2-yarmidan boshlab shakllangan kognitiv tilshunoslik, lingvokul'turologiya, lingvopragmatika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, neyrolingvistika kabi yo'nalishlar antropotsentrik tilshunoslikning mustaqil so'alari sifatida rivojlanib bormoqda.

O'zbeklar muloqot jarayoni, o'zbek tili materiallari o'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosida keng aspektda o'rganilmagan bo'lsa-da, kognitiv, psixolingvistik, lingvokul'turologik xarakterdagi bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda, asosan, kognitiv tilshunoslik va lingvokul'turologiyaning nazariy masalalari, o'zbek tilida muayyan kontsept ifodasi, mazmuniy pertseptsiya, bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari va intertekstuallik muammolari tadqiq etilgan. Matnning kognitiv-semantik, psixolingvistik, lingvokul'turologik xususiyatlari, jumladan, uning yaratilishi va mazmuniy idrokiga oid masalalar esa tilshunosligimizda monografik yo'sinda tadqiq qilingan emas.

2. Matn yaratilishining antropotsentrik talqini, asosan, kognitiv va psixolingvistik tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Kognitiv nuqtai nazarga ko'ra matn – mental tuzilmaning tilga transformatsiyasi bo'lib, butundan qismga qarab harakatlanuvchi yaxlit tuzilmaning verbal ko'rinishidir. Kognitiv yondashuv matn yaratilishini “muallif – matn – matndan tashqaridagi voqelik” tamoyili asosida tahlil etishni taqozo etadi. Bunda matnni so'zlovchi (yozuvchi) maqsadining ifodasi, nutq yaratilishi mahsuli, tushunish ob'ekti hamda tushunish mahsuli sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

3. Diskursiv tahlilga oid nazariy qarashlarda yaxlit nutqiy tuzilmani tushunish retsipientning muallif matni asosida “o'z matni”ni yaratishi sifatida izohlanib, bunda nutqiy tuzilma yaratish kodlashtirish jarayoni, uning idroki esa dekodlash hisoblanadi. Muallif matni asosida retsipientning lisoniy tafakkurida qayta yaratilgan matn makroqoidalarga ko'ra yuzaga keltiriladi, ya'ni retsipient

matnda diskret qismlar mazmunini umumiy, yaxlit tarzda qabul qiladi. Retsipient ongida matn qismlarining lokal mazmuni emas, global mazmuni qayta tiklanadi.

4. Psixolingvistik nuqtai nazardan matn yaratish va uning mazmuniy pertsepsiyasi individning nutqiy tafakkuri mahsuli, ob'ektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matnning shakli va mazmunini tadqiq etishda muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari ham e'tiborga olinadi.

5. Lingvokul'turologik yondashuvlarga ko'ra, matn muayyan xalqning madaniy qadriyatlarni, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlikdir. Xususan, pretsedent birliklar madaniy kodlarni avloddan avlodga olib o'tuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matn-o'xshatishlar, matn-metaforalar, tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo'lgan matnlarni o'rganish muayyan etnosga xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.

I K K I N C H I B O B

FATIK MULOQOTNING HUDUDIIY XOSLANISHI

2.1. Hudud va muloqot xulqi

Ijtimoiy-lisoniy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, nafaqat turli millat kishilarining, balki turli hududlarda yashovchi bir millatga mansub kishilarning MX ham o'zaro farqlanib turadiki, ishimizning bu bo'limi huddi mana shu muammo tadqiqiga qaratilgan.

Turli hududlarda yashovchi kishilar MX, eng avvalo, ularning jonli muloqot tili – shevasida namoyon bom'lishi bois asosiy masalaga kirishishdan oldin sheva (dialekt) va u bilan shughullanuvchi soha – sotsiolingvistikalarning asosiy vazifalari, o'zaro farqlari to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi.

Tilshunoslarning ta'kidlashiga qaraganda, o'zbek dialektologiyasida dialektning maxsus kontseptsiyasi ishlab chiqilmagan. Sheva, dialekt, lahja atamalari rus dialektologiyasidagi govor, dialekt, narechie atamalari ta'sirida yaratilgan.

“Sheva, – deya ta'rif beradi akademik Sh. Shoabdurahmonov, – biror tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismi: l a h j a – shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisi. D i a l y e k t termini dialektologik adabiyotlarda ko'pincha lahja ma'nosida, ba'zan sheva ma'nosida ham qo'llanadi. Keyingi vaqtlarda o'zbek dialektologiyasida dialekt termini sheva ma'nosida ham, lahja (shevalar yig'indisi) ma'nosida ham uchraydi”. “O'zbek dialektologiyasi” darsligida dialektologiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar ta'kidlanadi:

1) ayrim sheva va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilish;

2) milliy tilning paydo bo'lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o'rni va shu tilga asos bo'lgan shevalarni aniqlash;

3) shevalarning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, ularning adabiy til va qardosh tillarga bo‘lgan munosabatlarini belgilash;

4) o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash;

5) umumiy o‘xshash lisoniy xususiyatlarini tuzish va shevalarni klassifikatsiya (tasnif) qilish.

E. D. Polivanov sotsial lingvistikaning navbatdagi vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. Tilni sotsial-tarixiy fakt sifatida aniqlash.

2. Tillar va dialektlarni sotsiologik nuqtai nazardan tasvirlash.

3. Tilni muloqot quroli sifatida tahlil etish.

4. Sotsial-iqtisodiy va til hodisalari o‘rtasidagi sababli bog‘lanishlarni o‘rganish.

5. Til va uning (ayrim) jihatlarini yashash uchun kurash vositasi sifatida tahlil etish.

6. Tilning madaniyat tarixi bilan bog‘liq umumiy tipologik sxemasi evolyutsiyasini chizish.

7. Sotsiologik lingvistikaning amaliy masalalarini yoritib berish”.

Asosiy vazifalar qiyosidan ma’lum bo‘ladiki, “sotsiolingvist ko‘p jihatdan o‘zini dialektologlarning merosxo‘ri deb hisoblashi mumkin”. Dialektni o‘rganish jamiyatning boshqa a’zolaridan o‘z tillari jihatidan ajralib turuvchi ijtimoiy guruhlar nutqiy odatlarini o‘rganishga qaratilganligi uchun ko‘pchilik sotsiolingvistlar o‘z sohalarini dialektologiya bilan chambarchas bog‘liq holda tasavvur etadilar. Biroq o‘zining asosiy qiziqishi nuqtai nazaridan dialektologiya zamonaviy sotsiolingvistikadan keskin farqlanadi. U masalaga asosan diaxronik aspektida yondashib, “Mazkur dialekt tarixan boshqa dialektlar bilan qanday aloqadorlikka ega?”, “Bu dialektda adabiy tilning nisbatan qanday eski shakllari saqlanib qolgan?” kabi savollarga javob topish bilan qiziqib keldi. Bunda diqqat-e’tiborni “gapiruvchilarning verbal odatlarida emas, balki balki bevosita shakllar va ularga mos keluvchi ko‘rinishlarni o‘zida jamlash” an‘anasi ko‘zga tashlanadi.

Shuning uchun ham professor P. M. Melioranskiy har bir tilning dialekt va shevalari bizgacha yetib kelmagan soʻz va formalarni oʻzida saqlashligi bilan juda nodir manba boʻlib xizmat qilishligini taʼkidlagan. Professor A. Gʻulomov oʻzbek shevalarini toʻla oʻrganmay turib, tarixiy grammatikani yaratib boʻlmasligini qayd etadi.

Sotsiolingvistika esa bunga qarama-qarshi ravishda, til obrazlarini maʼlum bir vaqt doirasida olib va gapiruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan munosabatlarni ifodalashga urinib, ekstralingvistik mezonlar bilan sinxron yondashuvdan foydalanishga harakat qiladi; tadqiqotchining xatti-harakatlari til dinamizmining oʻzgaruvchan sistema ekanligini boʻrttiraverishdan koʻra, koʻproq til holatini tasvirlashga qaratiladi¹. Albatta, dialektologiya butunlay tarixiylikka moyil emas.

Dialektologiya va sotsiolingvistika yana bir oʻrinda – tahlil obʼektining dastlabki birligini tanlashda bir-biridan farq qiladi. Dialektologiya til va dialektlarni yaxlit tizilmalar sifatida talqin qiladi. Bu tizilmalar oʻrtasida aslida aniq koʻzga tashlanadigan ajratuvchi chiziqlar boʻlishi kerak: izoglosslar, yaʼni “lingvistik xaritada til xususiyatlari bir xil boʻlgan aholi punktlarini birlashtiruvchi chiziqlar” mazkur talqinga aniq qaram boʻladi.

Sotsiolingvistika esa, diqqat-eʼtiborni ijtimoiy guruhlar va ular tomonidan foydalaniladigan tilning oʻzgaruvchan birliklariga qaratishga, bu oʻzgaruvchan birliklarni ijtimoiy fanlarning: yosh, jins, maʼlum bir ijtimoiy-iqtisodiy sinfga tegishlilik, hududiy katta guruh, maqom va shu kabi anhanaviy demografik birliklar bilan bogʻlashga urinadi. Shuningdek, keyingi paytlarda til formalari va ijtimoiy funktsiyalar oʻrtasidagi munosabatlarni mikro (tor) darajada, yaʼni guruh ichidagi interaktsiyada, til va ijtimoiy kattaroq masshtabdagi funktsiyalarni kattaroq makro darajada, yaʼni guruhlar oʻrtasidagi interaktsiyada belgilashga urinishlar ham boʻlmoqda.

Masalaga xuddi shu nuqtai nazardan yondashadigan boʻlsak, oʻzbek dialektologlari oʻz merosxoʻrlari – endigina ish boshlayotgan sotsiolingvistlar uchun ulkan meros qoldirgan va qoldirayotganliklarini alohida qayd etib oʻtishga

to'g'ri keladi. Chunki o'zbek dialektologlarining ulkan xizmatlari bundan o'ttiz yil ilgariyoq olimlar tomonidan tan olingan va qayd etilgan edi.

Tilshunos A. Johraev o'zbek shevalarini areal nuqtai nazardan o'n bir zonaga ajratadi va bu zonalar bo'yicha tadqiqot o'tkazgan qirqqa yaqin dialektologning ishlarini alohida hurmat bilan tilga oladi. Shu bilan bir qatorda dialektologiya sohasida yo'l qo'yib kelingan kamchilik va nuqsonlar, jumladan, faktlar yig'ishga ortiqcha berilib ketish oqibatida yuz bergan nazariyasizlik uzoq davom etganligini achinish bilan qayd etadi.

Umuman, o'zbek dialektologlari uzoq vaqt "qancha ko'p dialektologik fakt yig'sak, shuncha yaxshi" shiori ostida ish ko'rib keldilar. Ularning qonuniy merosxo'rlari bo'lgan sotsiolingvistlarning asosiy vazifasi esa yig'ilgan boy materiallarga va sinxron kuzatishlarga tayangan holda har biri o'ziga xos olam bo'lgan insonlar MXni, demakki, insonning o'zligini chuqur va atroflicha tadqiq etishdan iboratdir.

2.2.Fatik muloqotning hududiy xoslanishiga tabait va ijtimoiy muhitning ta'siri

Kishilarga mulozamat, manzirat qilish usul va darajalari jihatidan O'zbekistonning turli hududlarida yashovchi kishilar muloqot xulqi birmuncha farqlanadi. Bu farqlar interetnik muloqotda ishlatiluvchi turli til va shevalar bilan ham bog'liq. El orasida aytib yuriladigan "Qo'qon manzirat", "Samarqand manzirat" kabi jumlarlar qam o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. O'zbekistonning Buxoro, Surxondaryo, ayniqsa, Xorazm viloyatlarida hatto mehmonga ham ortiqcha mulozamat ko'rsatish unchalik urf emas. Buning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor, albatta. Quyida mana shu sabablar xususida to'xtalamiz.

Avvalo, fatik muloqotga tabiatning ta'siri xususida so'z yurtitamiz. Grekcha "oykos" so'zidan olingan bo'lib, "uy, turar joy" ma'nosini anglatadigan "ekologiya" so'zi nemis biologi Ernst Gekkelning 1968 yili yozilgan "Paydo bo'lishning tabiiy tarixi" (Natural istory Greation) nomli asarida ilk bor atama sifatida qo'llanilgan bo'lsa-da, inson tabiatning bir bo'lagi, ajralmas qismi ekanligi allaqachon e'tirof etilgan va bu haqda qadim zamonlardan buyon

noyob fikrlar aytib kelinadi. Jumladan, geografik muhitning ijtimoiy hayotdagi ro'lini qadimgi grek olimlari Demokrit, Gippokrat, Geradot, Polibiy, Strabon, o'rta asr Sharq faylasuflari ibn Sino, Navoiy, Bobur va boshqa ko'plab mutafakkirlar o'z asarlarida alohida ta'kidlaganlar.

XIX asrning o'rtalariga kelib, XVIII asrda frantsuz mutafakkiri Sh. Montesk'e tomonidan har bir mamlakatning geografik muhiti uning axloqi va qonunlarini belgilaydi, degan ta'limoti qaytadan tiklanib, ijtimoiy-siyosiy qarashlarda o'z ifodasini topa boshladi. XX asr boshlarida geografik maktab yo'nalishlaridan biri sifatida Amerikada vujudga kelgan environmentalizm (inglizcha-muhit) ta'limotining ko'zga ko'ringan vakilaridan biri E. Xatington ham iqlim aholining sog'ligiga, jismoniy va axloqiy faoliyatiga, mehnat unumdorligiga ta'sir qilishini alohida ta'kidlaydi.

Atrof-muhitning insonga ta'siri masalasiga bo'lgan e'tiborning ortib borishi asta-sekin "inson ekologiyasi" degan maxsus fanni vujudga keltiradi. 1921- yili amerikalik olimlar Bordjes va Parklar tomonidan ilk bor qo'llanilgan "inson ekologiyasi" dastlab meditsinaning ajralmas qismini bildiruvchi atama sifatida tushunilgan bo'lsa-da, keyinchalik bu nom ostida maxsus fan shakllanib, u bilan nafaqat meditsina sohasi xodimlari, balki sotsiologiya, texnika, arxitektura, iqtisod va huquq sohasi mutaxassisleri ham qisman shug'ullana boshladilar.

Ekologiyaga ijtimoiy nuqtai nazar bilan qarash "ijtimoiy ekologiya" fanini vujudga keltirdi. 1927- yili Raderik Mak Kanzil tomonidan asos solingan bo'lsada, sotsiologlarning 1966- yili bo'lib o'tgan xalqaro kongressi va asosan, 1970- yili Varna shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi xalqaro kongressdan keyin "ijtimoiy sotsiologiya"sotsiologiyaning alohida tarmog'i sifatida tan olindi va u tez sur'atlar bilan rivojlanib boshladi⁴.

Bugungi kunga kelib, ekologiya muammosi maxsus fanlar tadqiqi doirasidan yalpi qiziqish predmetiga aylandi va u nafaqat ekolog-mutaxassislar, turli ijtimoiy fan vakillari, jumladan, faylasuf va tilshunoslar e'tiborini ham o'ziga jalb etmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlab o'tganidek: "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi

keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, tsivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan mana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir”.

Biroq inson nafaqat tabiatning, balki jamiyatning ham farzandidir. “Yoki boshqacha qilib aytganda, inson muhiti bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki qismdan – tabiiy va ijtimoiy muhitdan iboratdir” (Danilo J. Markovich). Inson mana shu ikki muhit o‘rtasida dunyoga keladi, o‘sadi va voyaga yetadi. Ammo bu o‘rinda shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, ijtimoiy muhit, ya’ni “kishining shakllanishi va faoliyatidagi uni o‘rab olgan ijtimoiy, moddiy va ma’naviy shart-sharoitlar”ning qanday bo‘lishligi ko‘proq ekologiyaga bog‘liqdir. Uning bevosita ta’sirida shakllangan ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Shu bilan birga kishining ijodiy faolligi va faoliyati tufayli ijtimoiy muhit o‘zgarib turadi va bu jarayon ta’sirida kishilar o‘zlari ham o‘zgaradilar”.

1938 yili Sho‘ro hukumati tomonidan uyushtirilgan ommaviy qatag‘on qurbonlaridan biri bo‘lgan millatparvar o‘zbek shoiri Abdulhamid Cho‘lpon “Somon parcha” (1923 yili Andijonda yozilgan) nomli she’rida:

“Topshirdim o‘zimni muhitning erkiga...

Muhit girdobida bir somon parcha,

Bir poxol cho‘pidek oqib boraman.

Har amal, har ishni “haq” deb boraman,

Vazminim qolmadi bir uzuq qilcha...

Muhit kuchli ekan, egdim bo‘ynimni...”,

(Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991, 481-b.) deb e’tirof etadi.

Bu she’riy parcha mazmunidan yaqqol ko‘rinib turibdiki, muloqot muhiti muayyan tarixiy davrda MX normalarini belgilab beradi va muhit oqimiga tushib olgan shoir o‘zi istamagan holda “har amal”, har ishni “haq” deb boraveradi, “muhit kuchli ekan, egdim bo‘ynimni” deb battol tuzumdan go‘yo to‘zim so‘raydi. Pragmatik kontekstdan, aniqrog‘i, kontekst ostidan “egilgan boshni qilich

kesmaydi!” degan o‘zbek maqoli sado berayotgandek tuyuladi. Sirtidan qaralsa, Sho‘ro hokimiyati bilan bevosita kommunikativ aloqaga kirishgan shoir kommunikativ vaziyat taqozo etgan kommunikativ andaza bo‘yicha muloqot qiladi. Ya’ni, qonxo‘r hokimiyatning rahmini keltirmoqchi bo‘ladi. Ammo ko‘pchilik (qudrat) qiyofasidagi sub’ekt (hokimiyat) 15 yildan so‘ng shoirdan ayovsiz o‘ch oladi, uni qatl qiladi. Zero, eng oqilona kommunikativ andaza ham shoir hayotini saqlab qolishga ojizlik qilib qoladi.

Kommunikativ muhit tushunchasi kommunikativ andaza atamasiga nisbatan zamon va makon nuqtai nazaridan qaralsa, qamrovdor (muqarrar) ma’noga ega. Mashhur faylasuf L. N. Gumilyovning fikricha, “har qanday millatning tarixiy taqdirida ilojisiz ravishda darz ketish davri boshlanadi. Xronologiyaning ko‘rsatishicha, bu davr 150-160 yil davom etadi. Millat hayotida bu eng og‘ir davr bo‘ladi; noo‘rin qon to‘kiladi, mamlakat xonavayron bo‘ladi, do‘st kim, dushman kim - bilib bo‘lmay qoladi... Boshga tushgan musibatlardan so‘ng odamlar g‘alaba qozonishni emas, osoyishtalikni istaydilar. Ular endi yaxshi biladilarki, barcha jabhada o‘ziga xoslikni namoyon qilishga intiladigan shaxslar qo‘ni-qo‘shni osoyishtaligiga ko‘proq xavf solib turadilar. Lekin o‘sha xavfdan saqlanish mumkin: buning uchun ijtimoiy qonunlarni xulq-atvor qoidalariga moslashtirish, o‘zgartirish kerak bo‘ladi”.

Hunarmandchilik bilan bog‘liq holda savdo-sotiq ham rivojlangan Marg‘ilon shahri aholisi muloqot xulqida fatik muloqot ancha takomillashgan bo‘lsa, Surxondaryo va Xorazm hududlarida muloqotning bu turiga e’tibor u darajada emasligini kuzatish mumkin.

Bob bo'yicha qisqa xulosa

1. Nafaqat turli millat kishilarining, balki turli hududlarda yashovchi bir millatga mansub kishilarning MX ham o'zaro farqlanib turadi.
2. Inson tabiat bilan chambarchas bog'liq va boshqacha bo'lishi mumkin ham emas.
3. Insondagi o'zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Demak, tabiat ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga ta'sir etadi.
4. Turli hududlarda yashovchi kishilar MX, eng avvalo, ularning jonli muloqot tili – shevasida namoyon bo'ladi.
5. Ijtimoiy muhit tarixiy davr taqozosiga ko'ra shakllanadi.
6. Hunarmandchilik bilan bog'liq holda savdo-sotiq ham rivojlangan Marg'ilon shahri aholisi muloqot xulqida fatik muloqot ancha takomillashgan bo'lsa, Surxondaryo va Xorazm hududlarida muloqotning bu turiga e'tibor u darajada emasligini kuzatish mumkin.

FATIK MULOQOTNING IJTIMOIIY XOSLANISHI

3.1.Fatik muloqotning jins bilan bog‘liq jihatlari

Fatik muloqotning jins bilan bog‘liq jihatlari haqida to‘xtalishdan avval muloqotning jins jihatdan xoslanishi sabablari xususida ma’lumot berib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Bu borada avvalo shuni aytib o‘tish joizki, erkak va ayollar biologik va fiziologik jihatdangina emas, balki MX jihatidan ham farqlanadilar.

Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar masalasi bo‘yicha Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari tillari misolida, shuningdek, yapon, rus, gruzin tillari materialida qator tadqiqotlar mavjud. Turkiyshunoslikda bu borada N. I. Grodekov (qozoq va qirg‘izlar misolida), Ye. D. Polivanov (Samarqand eronilarining o‘zbekcha nutqi misolida), A. N. Samoylovich (qozoqlar va oltoylar misolida) larning kuzatishlari, shuningdek, qator turkiyshunos-dialektologlarning asarlarida mazkur masala bilan bog‘liq ko‘plab qaydlar bor.

V. M. Alpatov 1988 yili chop etilgan “Yaponiya. Yazqk i obo’estvo” nomli kitobida yapon ayollarining MX haqida ancha batafsil ma’lumot beradi va yaponiyada hatto maxsus ayollar tili (nutqi) mavjudligini, ayollar nutqi erkaklar nutqidan muloyimligi, nazokatligi, shuningdek, ayrim maxsus til birliklari bilan farqlanib turishligini ta’kidlaydi.

O‘zbek ayollari nutqining ayrim o‘ziga xos xususiyatlari haqida tilshunoslarning kitob va maqolalarida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Umuman, MX jins jihatdan ham qator o‘ziga xosliklarga ega. Quyida o‘zbek MXning jins jihatdan xoslanishining asosiy sabablari, ayrim ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari haqida o‘tkazgan tadqiqotlarimiz natijalarini bayon qilamiz.

MX tabiiy va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishi ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan ta’kidlab o‘tilgan. Bu fikrni dialektologlarning ko‘p yillik kuzatish va tajribalari ham to‘liq tasdiqlaydi. Jumladan, taniqli dialektolog olim X. Doniyorov

bu haqda shunday fikr bildiradi: “Qipchoq dialekti (lahjasi)da muloqotchi aholining asosiy qismi ko‘proq qishloqlarda, o‘tloq va tog‘li yerlarda joylashgan bo‘lib, ularning katta bir qismi hozirgi davrda ham chorvachilik va g‘allachilik bilan shug‘ullanadi. Ularning turmushidagi bunday xususiyatlar, shubhasiz, tilida (dialektida), frazeologizmlarida o‘z aksini topganki, ularni yig‘ib o‘rganish o‘zbek tili boyliklarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi”.

Zero, turmush tarzi hamma vaqt inson kayfiyatini belgilaydi va uning harakteriga, MXga kuchli ta’sir etadi. Erkak va ayollar bajaradigan vazifalari, ijtimoiy haq-huquqlari jihatidan bir-biridan farqlanar ekanlar, demak, ularning MXlari ham o‘z-o‘zidan farqlanadi. Burch va haq-huquqlardagi, mehnat taqsimotidagi farqlar qanchalik katta bo‘lsa, MXdagi farqlar ham shunchalik katta bo‘ladi. Chunonchi, “O‘rta asrlarda yapon ayollarining jamiyatdagi o‘rni ancha yuqori bo‘lganligi sabab, u davrdagi erkak va ayollar nutqi o‘rtasidagi farq unchalik katta emas edi. Faqat o‘rta asrlarning oxirlariga kelib samuray (tajovuzkor yapon harbiylari) toifasi birinchi planga chiqib qolganidan keyin, ayollarning holati keskin yomon tomonga o‘zgarishi munosabati bilan nutqiy farqlanishlar ham shakllandi”.

Tarix qatlamlariga chuqurroq kirib borsak, ayolga cho‘ri yoki jonivor sifatida munosabatda bo‘linganini Sharqning ko‘plab quldorlik davlatlari misolida kuzatish mumkin. Bundan uch ming yillar avval tuzilgan Assiriya hukmnomalarida aytilishicha, ayollarning maxsus yopinchiqlari bilangina tashqariga chiqishi qonun yo‘li bilan belgilab qo‘yilgan. ...Shuningdek, er o‘z xotinini ayovsiz kaltaklashi, sochlarini yulib olishi, qulog‘ini qirqishi mumkin bo‘lgan va buning uchun hech qanday jazo olmagan.

Shunga o‘xshash holatlarni qadimgi Eron tarixida ham kuzatish mumkin. Qadimgi Eronda zardushtiylik diniga amal qilingan va bu diniy e’tiqodga ko‘ra ayollarning ibodatxonalarga kirishi taqiqlangan. Ayol faqat o‘z uyida muqaddas olovga sig‘inishi, o‘choqdagi olovni hech qachon o‘chirmasligi lozim bo‘lgan. Ammo o‘choqdagi muqaddas olovga o‘zining “noxush” nafasini tekkizmasligi kerak bo‘lgan. Shuning uchun og‘iz-burun aralash ro‘mol o‘ragan.

Turkmanistonda hozir ham saqlanib qolgan og‘iz-burunni o‘rab yurish ana shu odatning qoldig‘idir.

O‘tmishda O‘zbekiston xotin-qizlarining ham insoniy haq-huquqlari cheklanganligi, moddiy-ma’naviy qiyinchiliklarni boshidan kechirganliklari sir emas. Hali turmush va hayot haqida tasavvurga ega bo‘lmagan qizchalarni turmushga chiqarish, “xotin kishining boshi - uy ichining og‘ir toshi” degan aqidaga amal qilish, uning ostona hatlab tashqariga chiqishini taqiqlash hollari odat tusini olgan edi. Chunki tashqariga chiqsa, uning yuziga nomahramning ko‘zi tushadi. Bu esa musulmonchilik qonun-qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi. Yaqin-yaqinlargacha qattiq amal qilingan bu aqidalar Cho‘lponing “Kecha va kunduz” romanida real aks etgan. Romandagi bosh qahramonlardan biri Zebini o‘z eri - Akbarali mingboshini zaharlab o‘ldirganlikda ayblab, sud qiladilar, sud jarayonida yigirmanchi yillar arafasidagi o‘zbek xotin-qizlari mulohazasizlik qilgan xos bo‘lgan hayotiy detal’ o‘zining haqqoniy ifodasini topgan. Bu jarayon tasviridagi har bir jumla mavzumizga bevosita aloqador bo‘lganligi uchun uni to‘liqroq keltiramiz (ohsha davr o‘zbek qizlari MXda bo‘rtib turadigan holatlar tasvirlangan satrlar ostiga chizish bilan ta’kidlanadi):

“...Sud raisi, nihoyat, tilmochga yuzlandi:

– Aytingiz, aybdor yuzini ochsin.

Tilmoch bu buyruqni Zebiga tushuntirib berdi.

– Voy o‘laqolay! Shuncha nomahramning oldida yuzimni ochamanmi?

Undan ko‘ra o‘lganim yaxshi emasmi?

Bu so‘z tarjima qilib berilgach, pastdagilarning hammasi deyarlik, sud hayotidan bir necha kishi yengilgina kulib oldilar. Ulardan ikki kishi ayrildi: birinchisi - nihoyatda semiz va yo‘g‘on gavdali gornizon boshlig‘i; bu odam, tovuqning qahqalashiga yaqin bir tovush bilan ovozi boricha va birdaniga qahqah soldi. Hamma unga tomon o‘girildi. Sud raisi chinqiroq chaldi. Gornizon boshlig‘i yonidan ro‘molchasini olib yuz-qo‘llarini arta boshladi... Ikkinchisi - imom - domla, bu kishi o‘zlarining ingichka – hushtak singari ovozlari bilan, ixtiyorsiz

“masha-ollo!..” deb yubordilar. Hamma u kishiga tomon evrilgach, qip-qizarib va ham ... qo‘rqib boshlarini quyi soldilar.

– Siz bu ayolga tushuntirib aytingiz: yuzini ochmasa bo‘lmaydi. Sudning qoidasi – shu. Parangi ostida aybdordan boshqa kishining hozir bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun uning yuzini ochishga majburmiz. Aytingiz, qarshilikdan foyda yo‘q!

Zebi huddi o‘yinda sherigiga achchiq qilgan boladay teskari burilib oldi. U indamay turganligidan sud raisi yana so‘z oldi:

– Yaxshilab tushuntiringiz, yuzini ochmasa sud majlisini olib borolmayman.

– Olib bormasa mayliga... – dedi Zebi. – Bilganini qilsin!

Tilmoch o‘zi kulib, qip-qizarib turib, tarjima qildi.

– Harbiy sud masxarami bu kishiga? Aytingiz, yaxshilik bilan ochsinlar. Bo‘lmasa kuch bilan ochdiramiz!

– Voy sho‘rim! Shuncha erkak o‘tirsaya! O‘lganim ming marta yaxshiroq!

So‘ngra ovozini pasaytiribroq tirkadi:

– Otamning piriday kap-katta sallalik domla o‘tiribdilar. Qanday yuzim bilan qarayman?..

Sud raisi endi bu safar muloyim gapirdi:

– Aytingiz, sud tomonga qarab, domlaga orqasini o‘girib tursin!

Zebi yana indamadi. Domla o‘tirgan joyidan bir oz ko‘tarila tushib:

– Hech qisi yo‘q, qizim! – dedi, – men qaramayman!

– Mana bular-chi? – dedi Zebi. Sud hayoatini ko‘rsatdi.

Endi bu safar domla o‘rnidan turib tilmochga yuzlandi:

– Eshon mirzo! Menga ijozat berilsa, shu ayolga ikki og‘iz nasihat qilsam.

– Marhamat, taqsir!

Domla Zebining yoniga borib nasihatga boshladi. Zebi borgan sari susayib bo‘lsa-da, domlaning har bir so‘ziga javob qaytarardi. Oxirda, domla o‘z dindoshlari o‘rtasida mashhur bo‘lgan bir e‘tiqod masalasini ochdi:

– Kofir bilan itning farqi yo‘q. Itdan qochmaysizmi? Shunday bo‘lsa-da, kofirdan ham qochmasangiz bo‘ladi. Bu joiz?

... Zebi unadi:

– Bo‘lmasa, siz o‘zingiz nariroqqa borib o‘tiring!

– Xo‘p qizim, xo‘p, – dedi domla. To‘rt-besh qator orqaga borib o‘tirdi.

hammaning ko‘zi domlada ekan, Zebi chimmatini yuzidan oldi va sudga tomon evrilgan holda bir qo‘lini yana yuziga parda qildi”¹.

Endigina o‘n besh yoshga kirgan o‘zbek qizi MXdagi bu nolisoniy holatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan emas va hech qanday kulgili joyi ham yo‘q. Ammo o‘sha davr o‘zbek qizlari MXga xos bu holat tili va dili boshqa bo‘lgan kishilar uchun erish tuyuladi va Zebining bokira ibosi ustidan ular, ayniqsa, semiz va yo‘g‘on gornizon boshlig‘i miriqib kulishadi. Zero, Zebi mustamlakachilik sharoitida yashagan bir o‘zbek oilasida, buning ustiga diniy bid‘at va fanatizmga berilgan Razzoq so‘fidek mutaassib, ayol zotini inson o‘rnida ko‘rmaydigan johil ota qo‘lida katta bo‘ldi.

Qulog‘i faqat Eshon boboning so‘zlarini eshitadigan Razzoq so‘fi diniy bidoat va fanatizm ta’sirida ayollarni sariq chaqaga ham olmaydi. “Umuman, so‘fining bu bobda o‘ziga ko‘ra asosli bir maslagi bor: u maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og‘iz ochib til qaldiratishni ravo ko‘rmaydi. “Bu til, - deydi so‘fi, - doim xudoning zikri bilan qaldiraydi. Bu og‘iz hamma vaqt xudoning zikriga ochiladi. Og‘z bilan til bandaning jismida eng aziz va tabarruk aozolar. Ularni xotin kishiday past maxluqqa xor qilinadimi? Bo‘lmasa, haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo‘q, xotin kishiga juda zarur gap aytiladi, u toifa bilan zarurat yuzasidagina gaplashiladi. Vassalom!”

“O‘zbekda axir har bir erkak o‘z xotinini – o‘z halol juftini qizi yo o‘g‘lining nomi bilan atab chaqiradi.

...Bizning so‘fi mo‘min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o‘z halol jufti Qurbonbibini hamma vaqt “fitna” deb chaqiradi: “Fitna, sallamni ber!”, “Fitna, qiz o‘lguring qani?”, “Fitna, puldan uzat!” (27-b.)

Umuman, “Kecha va kunduz”da xalqning urf-odatları, rasm-rusmları bilan bir qatorda roman voqealari tasvirlangan yigirmanchi yillar arafasidagi o‘zbek erkak va ayollari MXdagi o‘ziga xosliklar ham mahorat bilan tasirlangan. Bu haqda adabiyotshunos olim N. Karimov shunday fikr bildiradi: “Agar Cho‘lpon bosh qahramonga “Zebo” ma’nosini anglatuvchi Zebi ismini bergan bo‘lsa, uning onasini esa u Qurvonbibi deb atagan; ya’ni uning Razzoq So‘fidek badfeol bir kimsaga o‘zini-o‘zi qurbon qilganligini ta’kidlamochi bo‘lgan. Chindan ham, Qurvonbibining butun hayoti erining qosh-qovoghi ostida kuyib, kul bo‘ldi. Uning bu dunyoda yashashidan umidi yolg‘iz qizi, uning baxtli-saodatli turmushi edi. Undagi onalik tuyg‘usi qizning boshiga kelajak falokatni sezgandek bo‘ladi. Lekin Razzoq so‘fi eshon boboning “Mingboshi qancha mo‘min-musulmonning hojatini chiqarardi... Ibodat ham - ibodat, mo‘min-musulmonga xizmat ham - ibodat!” degan so‘zlariga qarshi o‘zida biror aqlli gap topa olmaydi! Shuning uchun ham u erining boyagi so‘zlariga javoban: “Men-ku hech narsa demas edim., mana bu qizingiz xuddi bir suratga aylanib qoldi. “Qo‘rqib yotibman”, - deydi, xolos. Undagi qarshi kuch faqat shu so‘zlarni aytishgagina yetadi...”¹

Ayollarning turli davrlardagi ijtimoiy holatlari, ya’ni ayollarga bo‘lgan munosabatlar, erkak va ayollar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti tilda, nutqda va MXda o‘z ifodasini topadi. Taniqli dialektolog S. Ibrohimovning ta’kidlashicha, “... ishlab chiqarilgan mahsulot kishilarning qaysi jinsi tomonidan ishlatilishini bildiradi. Masalan, ketmonning ayollar tomonidan ishlatadigan yengil va kichikroq turini zayfona ketmon (rus.damskiy ketmen’), katta (og‘irroq) turini mardona ketmon (rus.mujskoy ketmen’) deyiladi. Bundan tashqari, yasalgan narsalarning qismlaridagi ayrim belgilar jonli narsalarning erkak va urg‘ochilik belgilariga nisbat berilib, o‘sha narsalarning otiga erkak va urg‘ochi so‘zlari qo‘shib aytiladi. Chunonchi, jugan suvlug‘i ikki bo‘lakdan iborat bo‘lib, bir bo‘lagining uchi qayrilib, tanaga biriktirilgan; ikkinchi bo‘lagining uchi qayrilsa-da, tanaga ilakmagan bo‘lib, bu joydan birinchi bo‘lakning uchidagi halqasimon joyga solib qo‘yiladi. Shunga ko‘ra, birinchi bo‘lak – urg‘ochi suvluq, ikkinchi bo‘lak – e r k a k s u v l u q deb ataladi. Bunday nom degrezlikda e r k a k y a n g , u r g ‘ o c h

i y a n g : duradgorlikda e r k a k c h o r c h o ' p , u r g ' o c h i c h o r c h o ' p tarzida uchraydi”.

Shuningdek, yozuv mashinasida dastlab erkaklar ishlagan va uning nomi m a s h i n a bo'lgan. XX asrning boshlariga kelib bu ish bilan asosan “pishbarqshnya” (“yozuvchi boyvuchcha ayol”)lar shug'ullana boshlaganlaridan keyin uning nomi m a s h i n k a ga aylangan.

Ko'rinadiki, mehnat taqsimoti ish qurollarining nomiga, ya'ni tilga ta'sir etmoqda. Nutq til birliklari evaziga qurilishligini inobatga oladigan bo'lsak, MXning jins jihatdan xoslanishi ma'lum bo'ladi. Ammo MXning mehnat taqsimoti bilan bog'liq holda jins jihatdan xoslanishning asosiy sababi mehnat, umuman faoliyat, ya'ni insonning doimiy ravishdagi mashg'ulotining uning jismiga va ruhiga ta'sir etishligidadir.

Ma'lumki, sobiq Ittifoqda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maorifiy jabhalarda, kishilar tafakkuri va dunyoqarashida muayyan o'zgarishlar rohy berdi.

Xuddi mana shu tarixiy davrda O'zbekiston aholisi, jumladan, erkak va ayollar hayotida, mehnat faoliyati, turmush tarzida va MXda juda katta o'pirilishlar ro'y berdi.

1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiya e'lon qilinganidan keyin 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining X bob 46-moddasida “xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” deb yozib qo'yildi, 1999 yil ayollar yili deb e'lon qilindi. Zero, milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimiz tiklanib borgan sari ayollarga bo'lgan sharqona izzat-ikrom ham tobora ortib bormoqda.

V. M. Alpatov “Erkak va ayollar bir xil gapiradilarmi?” degan savolga javob izlar ekan, yapon ayollari ma'lumotlilik darajasi, ishlab chiqarishdagi ishtiroki va boshqa ko'pgina sohalarda erkaklarga yetib olganliklari, hatto o'zib ketayotganliklarini, shu bilan bog'liq holda, ularning MXdagi farqlar ham tobora kamayib borayotganligini ta'kidlab, xulosa sifatida quyidagilarni yozadi: “Erkak va ayollarning yapon tilidan foydalanishlaridagi farqli jihatlarning kelajagi

haqida yapon mutaxassislari shunday bir umumiy to'xtamga kelmoqdalar: farq tobora kamayib bormoqda, aftidan, bundan keyin ham kamayib boradi, biroq u farqning tez kunda barham topishligiga hech qanday asos yo'q. Yapon tilining erkak va ayollar nutqida qo'llanadigan variantlari, shubhasiz, ijtimoiy sabablarga bog'liq bo'lib qolaveradi".

MX aynan mana shunday chuqur ijtimoiy faktorlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sotsiolingvistik kategoriya bo'lib, bu haqda atroflicha to'xtalmay turib, o'zbek MXning jins jihatdan xoslanish sababalri va darajalarini ochib berish mumkin emas, deb hisobladik va aynan shuning uchun gapni uzoqdan boshlashga to'g'ri keldi.

Fatik muloqot, ayniqsa, ayollar MXda o'ziga xos usulda namoyon bo'ladi. Ya'ni, aksariyat o'zbek ayollari erkaklarga qaraganda mulozamat qilishga usta bo'ladilar: "(Hotamova) mehmonlarni xotinlarga xos mulozamat va shirinso'zlik bilan kabinetiga taklif qildi." (A. Qahhor). Ayollarning mulozamat mavzulari ham erkaklarnikidan farqlanadi.

Ko'pchilik ayollar suhbatdoshlaridan hol-ahvol so'rayotgan paytlarida o'zlarini ularga yaqin ko'rsatish uchun: "Eson-omon yuribsizmi? Bolalarim, o'g'il-qizlarim... yaxshi yurishibdimi?" kabi jummalarni qo'llashadi. Bulardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek ayollari "Ko'ngilni qo'ling bilan ovlamasang, tiling bilan ovla" maqoliga amal qilishga intiladilar.

3.2. Fatik muloqotning yosh bilan bog‘liq jihatlari

Bolalar nutqida ham fatik muloqot bilan gapirishning o‘ziga xos ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. Masalan, ota-onalaridan biror narsa undirmoqchi bo‘lgan bolalar erkanib: «Dadajon, bir narsa obering desam, oberasizmi?...» yoki «Ayajon, bir gap aytsam ko‘nasizmi?...» Deya gapirishlarining tez-tez guvohi bo‘lamiz. Bolalar fatik muloqotda muddao bosqichiga o‘tishdan oldin yaqinlariga nisbatan «jon», «o‘zimning» so‘zlarini va yaqinlariga nisbatan o‘ziga tegishlilikni bildiruvchi «-im» qohshimchalarini qo‘shib ishlatishadi: «jon oyijon», «o‘zimning oyijonim», «o‘zimning buvijonim kabi.»

Kuzatishlarimizdan ma‘lum bo‘lishicha, yoshi o‘tganroq, tadbirkor va aqlliroq kishilar suhbatdoshlariga biror jiddiyroq fikrni aytishdan oldin adresatni suhbat mavzuiga tayyorlab olishga harakat qiladilar. Qoni qaynoqroq kishilar esa bunga amal qilmaydilar. Fikrimizning dalili uchun Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar» asaridagi quyidagi parchani keltirish mumkin: «O‘zbek oyim kelib kirgandan so‘ng Yusufbek hoji bir necha vaqt o‘ylab qoldi. O‘zbek oyim depsinib-depsinib eriga qarab olar edi. Anchagina so‘zsiz o‘lturg‘andan so‘ng hoji muloyimona so‘z ochdi.

– O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...

Otabek ma‘lumki, ularning «qilib qo‘yg‘an yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini» albatta bilar edi. Shundog‘ ham bo‘lsa bilmaganga solindi:

– Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilghan ishlari albatta nomaqbul bo‘lmas, – dedi.

Hoji o‘g‘lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotinig‘a qarab oldi. Yana orag‘a jimjitlik kirdi. Bu so‘zsizlik ma‘nosig‘a O‘zbek oyim tushuna olmag‘an edi. Biroz qarab o‘lturg‘ach, yuragi qaynab ketkandek bo‘ldi:

– Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig'ha unashib qo'ydiq... Endi san bilan to'y maslahatini qilishmoqchi edik...»

Ko'rinadiki, Yusufbek hojining niyati Otabekka uni Olim ponsadboshining qizig'ha unashib qo'yganliklarini aytish bo'lsa-da, gapni birdaniga shandan boshlamaydi. Tabiatan shaddod bo'lgan O'zbek oyim esa o'ylab-netib o'tirmay, gapning «berdisi»ni aytadi-qo'yadi.

Ma'lumki, kichik yoshli adresatlar uchun ertaklar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan o'zbek xalq ertaklarida ham muloqotning turli bosqichlari turli darajada amal qiladi. Xususan, ertaklarda ham salomlashuv va murojaat bosqichi fatik muloqotda doimiy kategoriya emas. Chunki ertak «Bor ekanu – yo'q ekan, och ekan-u to'q ekan...» deb boshlanuvchi kirish qismisiz ertak bo'la olmaydi va aynan shu kirish qismi yosh adresatni ertakka qiziqtiradi, uni ertak tinglashga ruhan tayyorlaydi. Xuddi shuningdek, ertakning xotima qismi ham kirish qismidek o'rinni egallaydi. Bu nafaqat o'zbek xalq ertaklarida, balki barcha millatlarning ertaklarida deyarli bir xil xoslanadi. Jumladan, taqqoslash uchun qirg'iz xalq ertagi bo'lmish «Donno dehqon» ertagi «Bor ekan, yo'q ekan, qadim zamonda bir ahmoq xon o'tgan ekan...» deb boshlansa, serb xalq ertagi bo'lmish «Ishlagan tishlaydi» ertagi «Bor ekan-da, yo'q ekan, qadim zamonlar Matiya ismli qirol yashagan ekan...» kabi jumlar bilan boshlanadi.

O'zbek xalq ertaklarida, xususan mashhur «Uch og'a-ini botirlar» ertagi «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir kishi bo'lgan ekan, uning uchta o'g'li bor ekan...» yoki «Ayoqzul» ertagi «Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, burun o'tgan zamonda bir podshoh bo'lib, uning Ayoqzul degan bir xizmatkor mahrami bor ekan...» deb boshlansa, bu she'riy usulda yozilgan ertaklarda ham kuzatiladi:

Bor ekanu yo'q ekan

Och ekan-u to'q ekan...

Ko'p qadim zamonlarda

**Samarqand tomonlarda
Bo'lgan Luqmoni hakim,
Dard bilan kelib har kim
Davo topibdi undan...**

(Mirmuhsin «Luqmoni hakim va O'roqboy» afsonasi)

Demak, o'zbek xalq ertaklarida fatik muloqotda: «Bor ekanu – yo'q ekan, och ekanu to'q ekan...» yoki «Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan...» kabi jumlar bilan boshlanib, bunda ertak tinglovchi ertak tinglashga tayyorlanadi, ya'ni tinglovchi ertakni tinglashga olib kiriladi (kirish bosqichi orqali).

Yuqoridagilardan farqli o'laroq tojik xalq ertaklari kirish bosqichisiz to'g'ridan-to'g'ri voqea rivojidan boshlanadi. Masalan, «Yo'lbars Bilan tulki» va «Beshiktebratar va ilon» ertaklari misolida ularning birinchisi «Bir kuni Tulki qalin o'rmon ichiga kiribdi. To'satdan uning ro'parasidan Yo'lbars chiqib qolibdi....», ikkinchisi «Yori Nohlak degan odam bo'lib, u usta ekan...» deb boshlanadi. Dog'iston xalq ertagi bo'lgan «Yolg'onchi boy» nomli ertakda ham xudi shu holni kuzatish mumkin: «Bir kuni tog'da yashovchi bir kambag'al kishi bozordan qaytayotgan ekan...» kabi. Bu holni dog'iston xalq ertaklarida ham kuzatish mumkin. Masalan, «Yolg'onchi boy» ertagi «Bir kuni tog'da yashovchi bir kambag'al kishi bozordan qaytib kelayotgan ekan...» kabi jumlar bilan to'g'ridan-to'g'ri fatik muloqotsiz boshlanadi.

Ushbu xalq ertaklarida xotima bosqichi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qirg'iz, tojik, serb xalq ertaklaridan farqli o'laroq, o'zbek xalq ertaklari, asosan, «Shunday qilib ular murodu maqsadlariga yetishibdi» jumlasini bilan xotimalasa, boshqa xalq ertaklari voqealar rivojidan kelib chiqib xotimalanadi. Ya'ni ularda o'zbek xalq ertaklari kabi bir xil jumla («Shunday qilib ular murodu maqsadlariga yetishibdi») jumlasini ishlatilmaydi. O'rta yoshli kommunikantlar nutqining MX «do'stim», «o'rtoq», «jonim» (ayollar nutqida ayollarga nisbatan), «og'ayni»,

«qarindosh» kabi murojaat shakllari yoki adresatning to'g'ridan-to'g'ri ismini aytib murojaat qilish bu yoshdagilar MX nutqiga xos bo'lgan asosiy xususiyatdir. Ular nutqida unchalik uzoq murojat qilinmaydi, ya'ni me'yor saqlangan holda muddaoga o'tiladi. Buni A.Qahhorning «Sinchalak» qissasidagi ushbu parcha orqali ham ko'rishimiz mumkin:

«Qalandarov ishni shovqin solmasdan, qizishmasdan yaxshilikcha bitirmoqchi edi, shuning uchun Saida kirganda:

– Keling, o'tiring, – deb joy ko'rsatdi. Saida hayron edi. Qalandarov iloji boricha osoyishta gapirishga harakat qildi.

– Gap bunday, Saidaxon... ikkovimiz bir qozonda qaynamayotibmiz. Men qiziqqonroq, buning ustiga qo'polroq odamman. Siz yoshsiz, buning ustiga ayol kishisiz, o'qigan qizsiz... har qaysimiz o'z izzatimizda qolsak... Men jon deb ketar edim, lekin kolxozga ko'p mehnatim singgan, bundan tashqari ketgani qo'yishmasa kerak deb o'ylayman... Saida labini kulgidan arang yigishtirib:

– Ketgin demoqchimisiz? – dedi.

– Tushunadigan odamning sadaghasi ketsang... Ariza bering! Men o'rtoq Nosirov bilan gaplashaman.

Keksalar nutqinping muloqot bosqichi o'zining yoshiga xos bo'lgan vazminligi, jiddiyligi, uzoq muloqot qilinishi, gap misollar keltirish bilan uzoqdan boshlanishi bilan farq qiladi. Masalan:

– Gap bunday! – dedi Oqsoqol vazmin ovozda. – San – Bashorxon, esli juvonsan. Potmamning yosh bolasi yo'q, bilasan, bo'lmasa, bola o'zimizdan ham ortmasdi. To'g'ri, kolxozda emizikli xotinlar ozmas. «Tuya» sartaroshining xotini o'g'il tuqqan. Xirmontepalik Melivoyniyam Husan-Husani bor. Lokin bu, - Oqsoqol qoshi bilan menga imo qildi. – eshikma-eshik yursa...

– Voy, Oqsaqol, men bir nima deyapmanmi? – Bashorat xafa bo'lib uning gapini kesdi.

– Shoshma, berdisini eshit! – dedi Oqsoqol ovozini pasaytirib. – Dumaniki yaqin. Bolaga ammasi qaraydi. Emizish – sendan. Uqdingmi?...

– Gap shu! – dedi Oqsoqol keskinlik bilan. – Bugundan boshlab shu ikki norasida aka-sinlig bo‘ladi. Lokin zinhor-bazinhor og‘zingdan gullab yurma. Sen ham. Oqsoqol pochchaga tayinladi. – Begunoh go‘dakni malomatga qoldirsalaring xafa bo‘laman!...» (O‘.Hoshimov).

Ba‘zan keksalar fatik muloqotda kommunikativ vaziyatga qarab farqlanadi. Masalan:

«Savat yarimlab qolganida tomorqaning pastak eshigi g‘iyqilladi. bobomning yo‘talgani eshitildi. Kimsan akam ikkalamiz darrov sipo bo‘lib qoldik.

Sekin qarasam, bobomga ergashib oyim ham pildirab kelyapti. Bobom ishimizni bir zum tomosha qilib turdida, Kimsan akamga buyurdi:

– Tush...

– Nega bobojon? Dedim qo‘limdagi savatga imo qilib. – Hali to‘lgani yo‘q-ku!

Kimsan akam dorbozlardek bir oyoqlab bag‘azga osilgan ko‘i biz tomonga yuzlandi. Oyim teskari qarab, kayfti bilan yuzini to‘sgancha hiqillab yig‘lab yubordi. – Urush boshlanibdi! – dedi bobom siniq ohangda. – Yurtimizag nemis bostirib kiribdi. Hiqillab yig‘layotgan oyim to‘satdan ovozini baralla qo‘yib yubordi. – Voy sho‘re-em! Bu balo qayoqda turgan ekan. Sho‘rginam qursin!...»

Keksalar nutqiga xos bo‘lgan muloqot xulqi kommunikativ vaziyat, kommunikativ strategiya va nutqning fatik muloqot bosqichi “Ikki eshik orasi” romanida keltirilgan parchada haqqoniy tasvirlangan. Bunda yozuvchi, dastlab, kitobxonni kommunikativ vaziyatga hozirlaydi: «Sekin qarasam, bobomga ergashib oyim ham pildirab kelyapti. Bobom ishimizni bir zum tomosha qilib turdida, Kimsan akamga buyurdi:

– Tush...» kabi tasvirlar ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lgan kitobxon, abatta, quvonchli hodisa ro‘y bermasligini oldindan his etadi. So‘ngra muallif kitobxonni

muddaoga olib kirishda davom etadi: « – Nega bobojon? Dedim qo‘limdagi savatga imo qilib. – Hali to‘lgani yo‘q-ku!» Ya’ni kommunikativ vaziyatning fatik muloqot bosqichi tabbiy-dinamik ravishda rivojlanib boradi va adresat kommunikativ andoza vositasida pragmatik kontekstni tushunishi uchun munosib vaziyat yaratiladi. Nolisoniy vositalar bilan ifodalangan fatik muloqotda esa (“Oyim teskari qarab, kayfti bilan yuzini to‘sgancha hiqillab yig‘lab yubordi”) pragmatik kontekstga munosib ravishda kommunikativ strategiya tanlash imkoniyati paydo bo‘ladi: « – Urush boshlanibdi! – dedi bobom siniq ohangda. – Yurtimizag nemis bostirib kiribdi. Hiqillab yig‘layotgan oyim to‘satdan ovozi baralla qo‘yib yubordi. – Voy sho‘ri-im! Bu balo qayoqda turgan ekan. Sho‘rginam qursin!...»

Husan duma vaziyat og‘ir bo‘lsa-da, lekin o‘zbek bo‘lgani uchun muloqot xulqining milliy tartib-qoidalarida doirasida harakat qiladi. Sovuq xabarni qanday aytishni oldindan rejalashtirib qo‘ygan boy, ularning ishini bir zum bo‘lsa-da tomosha uilib turadi. Binobarin, bunday sovuq va favqulodda xabarni tezda yetkazish kerak edi. Lekin baribir xabarni aytishdan oldin sukut qiladi, ya’ni ularning ishini bir zum tomosha qiladi. Kimsan va Robiyaning xayolini yana shu xatti-harakati (predmet) vositasi bilan biroz chalg‘itadi – uni kommunikativ vaziyatga hozirlaydi.

Biz bu misolda nutqning ijtimoiy-lisoniy aspektlari o‘zbek muloqot xulqining o‘ziga xos milliy xususiyatlari bilan birgalikda sotsiolektning fatik muloqot nutqini amalga oshirishda yosh xususiyatlarini yaqqol ifodalaganini ko‘rishimiz mumkin. Kirish bosqichida adresatning ismini aytib murojaat qilish o‘rniga «bolam», «bolaginam», «o‘g‘lim», «qizim» kabi murojaat shakllari «sen» formasi orqali qo‘llanadi:

«Poshsha xolla boshini ko‘tardi. Oyoqlari uvishib qolgan ekan, yurishdan yuzi burishib tizzalarini uqaladi.

– Ko‘nglim g‘ash, bolam, – dedi to‘satdan.

Xurshida tushunmadi...» (O‘.Hoshimov) kabi.

3.3. Fatik muloqotning kasb-kor bilan bog‘liq jihatlari

Sotsiolog I.S.Konning fikricha, kishilarning ijtimoiy vazifasi – sotsial (ijtimoiy) pozitsiyani egallagan har bir odamda mavjud bo‘ladigan, jamiyat tomonidan me‘yorlashtirilgan xulqqa ega bo‘lishida ko‘rinadi. I.S.Konning bu fikriga sotsiologlar T.Shibutani va Ya.Ohepanskiylar ham qo‘shiladi. R.Bell esa individning bosqichli (ierarxik) shaklga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhda rasmiy yoki so‘siz tarzda tutgan o‘rni uning ijtimoiy pozitsiya (vazifasi)ni yoki huquqi (statusi)ni belgilaydi, deb e‘tirof etadi. Individning kasb-kori, lavozimi, mavqei ta‘sirida shakllangan xarakteri (huquqi) shu shaxsning majburiyati (burchi) bilan birga uning kommunikativ aktda egallaydigan pozitsiyasini belgilab beradi. Individ ana shu belgilangan pozitsiyada turib, o‘zining ijtimoiy ro‘lini ro‘yobga chiqaradi.

Shunday ekan, kommunikantlarning ijtimoiy ro‘li ular nutqining qay darajada joriylanishiga ob‘ektiv va sub‘ektiv ravishda o‘z tahsirini ko‘rsatuvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy status, ijtimoiy vazifa va ijtimoiy pozitsiya kommunikativ jarayonda u kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Ijtimoiy ro‘l, o‘z navbatida, u nima qiladi? So‘roghiga javob bo‘ladi. Ya‘ni ijtimoiy ro‘l – bu sotsiumning ijtimoiy status, ijtimoiy vazifa va ijtimoiy pozitsiyalari dinamikasi asosida shakllangan ko‘rinishidir.

Jumladan, ijtimoiy ro‘l sotsiumning doimiy va muddatli xarakteristikasi (muloqot xulqi)ga ta‘sir etib, uning shaxsiy sifatida o‘z izini qoldiradi. Chunki sotsium bilan kommunikatsiyaga kirishgan kommunikat tomonidan kommunikantga baho beruvchi xulosa paydo bo‘ladi. Masalan:

- o‘qituvchiga o‘xshab nasihat qiladi;
- artist (aktyor)ga o‘xshab gapiradi;

- tergovchidek tergaydi;
- boshliqday baqiradi;
- bozorchi xotinday shang‘illaydi va hokazo.

Bundan tashqari, kommunikantlarning ijtimoiy ro‘li doimiy yoki muddatli xarakter (muloqot xulqi) sifatida uning yoshi, jinsi, oiladagi o‘rni va ijtimoiy mavqei, kasbi asosida yuzaga keladi.

V.M.Jirmunskiy o‘zining oxirgi ishlaridan birida jamiyatdagi mavjud tilning hududiy dialektlarga bo‘linishidan tashqari, o‘z navbatida sotsial dialektlarga bo‘linishini ta’kidlab shunday yozadi: «Har qanday tilda hududiy dialektologiya mavjud ekan, unda sotsial dialektologiya ham bo‘lishi kerak». Chunki hududiy dialektlarda muloqotchilar nutqi sotsial markirovkaga ega bo‘ladi.

Umumxalq tilining ijtimoiy darajasini V.M.Jirmunskiy «sotsial dialekt» deb atashni taklif etadi. Hududiy dialektlar bir tilda muloqotchi xalqning geografik jihatdan ajralib qolishidan yuzaga kelsa, sotsial dialektlar bir tilda muloqotchilarning jamiyatdagi ijtimoiy vazifa va soha, mutaxassislik, yosh, jins jihatdan farqlanib turishidan paydo bo‘ladi. Boduen de Kurtene ta’kidlaganidek, so‘zlovchining geografik (hududiy) va sotsial jihatdan farqlanishi undagi tilning gorizontal va vertikal bo‘linishini hosil qiladi. Yoki boshqacha aytganda, hududiy jihatdan har xillik tilning gorizontal bo‘linishini, ijtimoiy jihatdan har xillik esa tilning vertikal bo‘linishini ko‘rsatadi.

Sotsial dialektni belgilashda muloqotchi (sotsium)ning muayyan ijtimoiy yoki kasbiy guruh tarkibiga kirishi, bir korporatsiya a‘zolari sifatida birlashishi, kasbiy qiziqishi va maqsadiga egaligi, ijtimoiy tabaqasi, yoshi, jinsi, estetik-madaniy ko‘rinishi e’tiborga olinishi lozim.

Sotsial dialektda doimo turli kasblar yoki guruhlarning talabiga asosan so‘zlovchining amaliy nutqida tilning o‘ziga xos shakllari: adabiy me’yor, hududiy dialekt, shahar tili, muloqot tili (unga ba’zan kasbiy zaruriyat tufayli va ba’zan fakul’tativ tarzda jargon qo‘shilib keladi) birlamchi, tayanch yoki asosiy nutq

sifatida o‘rin egallashi mumkin. Masalan: suxandon nutqini adabiy tildan, dehqon nutqini hududiy dialektdan, sotuvchi nutqini muloqot nutqidan, jurnalist nutqini publitsistik nutqdan va hokazo ajratib bo‘lmaydi. Lekin shunday bo‘lsa-da, ular nutqining o‘ziga xos fragmentlari borki, bu fragmentlar faqat bita sohaga xosligini namoyon etib turadi.

Har qanday ijtimoiy soha (kasb) sotsial xoslanishga ega ekan, ana shu ijtimoiy soha kishilarining nutqi ham, albatta, sotsial xoslanishga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan ma‘lum ijtimoiy soha kishilari foydalanadigan tilni to‘laonli ravishda sotsial dialekt deb atash mumkin.

So‘nggi avlod rus tilshunoslari, asosan, INTERNET saytlarida e‘lon qilinayotgan ilmiy tadqiqotlarda «sotsial dialekt» termini qisqartirilib «sotsiolekt» tarzida qo‘llanayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Quyida turli kasb egalari nutqida kirish bosqichining o‘ziga xos ko‘rinishlarini izohlashda «sotsial dialekt» termini o‘rnida «sotsiolekt» terminini qo‘llaymiz. Chunki har bir kasb o‘zining etikasi, xarakteri, maqomiga ega bo‘lish bilan birga o‘z kasbiga xos nutq (til) shakliga ega bo‘ladi. Rus filologi M.M.Baxtin aytganidek, «So‘zlardan kasbning hidi kelib turadi...». Ya‘ni har bir kasb (ijtimoiy soha)ning leksik tizimi, nutqiy uslubi, funktsional jihatidan bir-biridan nisbatan bo‘lsa-da farqlanib turadi.

Sotsiolekt mavjudligi jihatidan keng diapazonga ega va uning har bir ijtimoiy guruh ichidagi shakllarida kasb-hunar leksikasi, muayyan sohaga oid terminlar yoki professionalizmlar uchraydi va nutqning qaysi ijtimoiy sohaga aynan tegishli ekanligini bildirib turuvchi belgi (so‘z) sifatida qatnashadi. Biroq bunday lisoniy vositalarga faqat til birligi sifatida emas, balki nutq birligi sifatida ham qaramoq lozim. Ya‘ni kasb-hunar leksikasi, muayyan sohaga oid terminlar yoki professionalizmlar yakka holda olib qaralganda termin bo‘lib qoladi, ammo ular sotsium nutqi (kontekst)ning ichida bevosita joriylanganda ana shu nutqni o‘z-o‘zidan sotsiolektga aylantiradi. Boshqacha aytganda, terminlar sotsiolektning

qaysi sohaga tegishli ekanligini aks ettiruvchi nutq yadrosi yoki nutqiy yadro bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, asosan, sotsiolekt sotsiumning ma'lum guruhga tegishli ekanligini ko'rsatib turuvchi belgi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, turli kasb egalari nutqida sleng, jargon, argo kabi til variantlari ham doimiy yoki fakul'tativ tarzda uchrab turishini e'tiborga olish lozim.

Adresantning gapirish shakli, o'zini tutishi (xulqi), hatti-harakati va tashqi ko'rinishidan qaysi ijtimoiy sohaga tegishli ekanligi adresat ongida assotsiativ tushuncha hosil qiladi. Chunki har bir faoliyat o'z «manqeyi»ga ega bo'lib, kishidan ma'lum me'yordagi ruhiy quvvatni talab etib, o'ziga yarasha ijtimoiy markerlar (kasbning qaysi jins vakillaridan tarkib topishi; doimiy mashg'uloti; tashqi ko'rinishi – kiyimi bilan bog'liq belgilar; harakatlaridagi farqlanib turuvchi belgilar; leksik, grammatik, uslubiy va fonatsion xususiyatlari)ni shakllantiradi. Shakllangan ijtimoiy markerlar esa o'z navbatida kasbning xarakterini belgilab beradi. Har bir kasbning xarakterini belgilashda, avvalo, ularning ijtimoiy markerlarini to'liq tasnif etish lozim bo'ladi.

Ijtimoiy markerlar har bir sohada o'ziga xos ko'rinishlarga ega bo'lib, kasbiy xarakterni shakllantiradi va o'z navbatida soha vakillarining individual muloqot xulqiga ta'sir qiladi. Zero, «har bir sohada muloqo o'z qonuniyatlariga, o'z xususiyatlariga ega. Shuning uchun ham turli soha xodimlari o'zlarining sohasiga xos xususiyatlarni o'zlashtirib olishadi-da, ba'zan undan qiyin chiqishadi. Chunki sohadagi ko'plab muloqot me'yorlari etalonga aylanib qoladi va soha xodimlarining faoliyatida, ularning harakatida odat tusiga kirib ketadi».

N.I.Formanovskaya ta'kidlab o'tganidek, «stereotip stereotipdan farq qiladi».

Zero, har bir kasbning o'ziga xos kasb etikasi, ijtimoiy markerlari mavjud bo'lib, ma'lum ma'noda kasb xarakterini shakllantiradi. Shakllangan kasb xarakteri esa sotsiumning muloqot xulqiga o'z ta'sirini o'tkazib, unda ma'lum

qolipga tushgan stereotipni paydo qiladi. Turli kasb egalari muloqot xulqini tadqiq etishda kasbning etikasi, xarakteri, stereotip belgilari muhim ahamiyat kasb etadi.

Insondagi o'zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa turli kasb egalari muloqot xulqiga ta'sir etadi.

Masalan:

- shovqinli bozor sharoitida savdo qilayotgan sotuvchilar muloqot xulqida baqirib, shang'illab gapirish odatiy holga aylanib qoladi;

- o'quvchilarni surunkali tartibga chaqirish, ularning g'ala-g'ovurlarini bosib turish o'qituvchining asablariga ta'sir qilib, uning muloqot xulqida, hatto mehmondorchilikka borganida ham bolalarning to'poloniga befarq bo'lolmaslik, to'polonchilarga «tek o'tir», «to'polon qilma» deb tanbeh berishlari kuzatiladi;

- alohida madaniyat yoki etika talab qilinadigan nufuzli idoralarda ishlaydiganlar muloqot xulqida hurmat bilan gapirish, tavozeni o'rinlatish, xushmuomalalik xususiyatlari bo'rtib turadi;

- muntazam bezori-jinoyatchilar bilan ish olib boradigan inspektorlar nutqida qo'pollik, so'kinish, jargonlar asosiy o'rinda turadi;

- tarkibi asosan erkaklardan iborat bo'ladigan harbiylarda esa jiddiylik, erkakcha ton, unvonga qarab murojaat qilish, unvoni kichik harbiylar (oddiy askarlar)ga buyruq berish, chiniqtirish uchun ataylab og'ir mashqlarni bajarishga majbur qilish, vul'garizmning qo'pol shakllaridan foydalanishni kuzatish mumkin.

Ma'lumki, muhit unda faoliyat olib borayotgan sotsium tafakkurini o'ziga mos ravishda shakllantiradi. Tafakkur sotsiumning dunyoqarashiga, kasb mahoratiga, muloqot xulqiga ta'sir etadi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos mafkuralari, avvalo, ularning shiorlarida ko'rinadi va ularning vakillari o'z-o'zidan ana shu shior ostida faoliyatlarini tashkil etadilar. Masalan: o'qituvchi «Ta'lim va tarbiya berish», ichki ishlar xodimlari «huquqbuzarlikka qarshi kurashish», shifokorlar «Bemorlar dardiga malham

bo‘lish», savdogar «Savdo qilish», harbiylar «Qasamyodga sodiqlik» kabi shiorlar zahirida faoliyat olib boradilar.

Sotsiumning qaysi davrning qaysi ijtimoiy sohasi vakili ekanligi uning faqat nutqidan emas, balki uning yurish-turishi, o‘zini tutishi (kinesik holati), nutqining shakli (ritmi), tashqi ko‘rinishi, talaffuz me‘yori (ton) kabi o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni ramziy ijtimoiy markerlari bilan ham ajralib turishini kuzatish mumkin.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, nafaqat til, balki anna shu tildagi mavjud hududiy dialektlar, shuningdek, ijtimoiy dialektlar ham tobora leksik-semantik, morfologik, sintaktik va stilistik jihatdan yangilanib, yoki aksincha, eskilari yangicha ma’no hosil qilib kelaveradi. Bu albatta, ma’lum bir davrga xos hodisa bo‘lib, ijtimoiy xususiyatga egadir. Shunday ekan, barcha davrlarda ham ijtimoiy sohalar jamiyat rivojiga o‘ziga xos tarzda ozmi-ko‘pmi hissasini qo‘shib kelganini inobatga oladigan bo‘lsak, ularning o‘z sohasiga xos muloqot tili, ya’ni sotsiolektlari ham davrlar o‘tishi bilan tobora boyib, yangilanib borayotganini nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Quyida o‘qituvchi, ichki ishlar idoralari xodimlari va savdo xodimlari muloqot xulqi va unda kirish bosqichi sotsiolingvistik aspektida tahlil qilinadi.

O‘qituvchining diqqat (e’tibor)i, asosan, o‘quvchilarni nazorat qilishga qaratilgan bo‘ladi. Bu psixologik pozitsiya o‘qituvchi nutqida buyruq, tanbeh, nasihat kabi ohanglarni reallashtiradi va faqat o‘qituvchiga xos jargonlar va professionalizmlarni hosil qiladi: «Dorskaga chiqing!», «Dorskaga!», «To‘g‘ri o‘tiring!», «To‘g‘rilaning!», «To‘g‘ri yozing!», «E’tibor bering!», «Qo‘lingizni ko‘taring!» va hokazo. Bunday so‘z va iboralar boshqa ijtimoiy guruh vakillarining nutqida deyarli uchramaydi. Qo‘llanganda ham o‘qituvchi nutqidagi presuppozitsion semantikani bermaydi. Shu o‘rinda birgina o‘qituvchi sotsiolektiga xos bo‘lgan professionalizmlardan biri «Qo‘lingni ko‘tar!» birikmasini qiyosiy tahlil etib ko‘raylik. Aslida qo‘lini ko‘tarish noverbal vosita hisoblanib, rasmiy yig‘ilish (majlis yoki kengash)da ovoz berish sifatida «roziman», «noroziman» yoki

«betarafman» kabi informatsiyani ifodalaydi. Dars jarayonida esa ohquvchi tomonidan ifoda etilgan qoʻlni koʻtarish harakati nolisoniy vosita sifatida «Men aytay», «Men javob beray», «Men tayyorman» kabi situativ informatsiyalarni beradi.

Oʻtkazilgan sotsiologik tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, 80% oʻqituvchi darsni oʻziga xos soʻroq maʼnosidagi bilan boshlaydi: «Oʻtgan darsimizda qanday mavzu bilan tanishgan edik?», «Biz sizlar bilan nima haqda gaplashgan edik?» kabi. Bundan tashqari, dars davomida dars davomida oʻqituvchi oʻquvchilar oldiga savollar qoʻyib, ularni toʻgʻri javob berishga asta-sekin oʻrgatib boradi. Bu harakat oʻqituvchi nutqida «Xoʻsh!», «Oʻylab koʻraylik!», «Demak!», «Xullas!», «Aytaylik!» kabi kirish soʻzlarni oʻz-oʻzidan hosil qiladi va oʻquvchi diqqatini jalb etish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga oʻqituvchi mimika, pantomimik, jestikulyatsiya, kinesika va koʻz kontakti yordamida ham oʻquvchilar bilan muloqotga kirishadi. Biroq noverbal vositalar ichida oʻziga xos informatsiya beruvchi vositalar ham borki, ular oʻquvchilarga muayyan axborotni yetkazadi. Masalan: oʻtirgan stolini taqillatishi – «Tinchlanining!», «Shovqin solmang!», «Quloq soling!», «Tushunib oling» kabi axborotlardan birini uzatadi. Baʼzan bunday informatsiyalar koʻz kontakti, yaʼni koʻz qarashi orqali ham ifodalanadi. Chunonchi, oʻqituvchi nutqini toʻxtatib, nigohini biror oʻquvchiga alohida qadashi buyruq: «Gapir!», murojaat: «Sen!», ogohlantirish: «Gapirma!», olqish «Barakalla!», tanbeh «Jim oʻtir!» va hokazo axborotlarni berish mumkin.

Umuman, hamma xalqlar hamma zamonlarda oʻqituvchini buyuk inson hisoblagan. Oʻzbeklar hurmat qilgan kishisini, ilmi odamlarni domla deb izzatini joyiga qoʻydi. Ozarbayjonlar muallim deb ehtirom koʻrsatadi. Tojiklar ustod, deydi. Ruslar uchun «uchitel» degan soʻz juda keng maʼnoni anglatadi. Biroq, bu soʻzlarning hammasini yagona maʼno – kata hurmat maʼnosi birlashtirib turadi.

Tinimsiz xalq ichida boʻlishi, ayniqsa, turli ijtimoiy guruh vakillari bilan muloqot qilishi natijasida tergovchilar millat mintaliteti, iqtisodiy-ijtimoiy holatini

juda yaxshi o'zlashtirib oladilarki, bu ularning asosiy vazifasi – jinoyatni ochish uchun juda qo'l keladi. Chunki tergovchining ijtimoiy funktsiyasi tergov faoliyati – «jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash, ularni tadqiq etish va muayyan baholash»dan iborat.

Muttasil bir ish bilan shug'ullanish natijasida ularning muloqot xulqida ham kasbiy xarakterini belgilab beruvchi muayyan ijtimoiy markerlar shakllanib qoladi. Shu bilan birga, tergovchilar ijtimoiy vazifasi nuqtai nazaridan o'zini jiddiy tutishga urinishi, har bir elementga diqqat bilan qarashi, ma'lum vaqt o'tgach, uning muloqot xulqiga ta'sir etib, ishdan tashqari holatlarda (nonushta, maishiy tadbirlarda va hokazoda) ham jiddiy va kuzatuvchan kayfiyatda bo'lib qoladilar. Bunday kayfiyat ularni hushyor, shubhali nazar bilan qarovchi, kelgan kishi bilan rasmiy muloqotga kirishadigan stereotipga aylantirib qo'yadi. Chunki tergovchilar ham ijtimoiy guruh vakillari sanalib, o'zlarining xususiyatlari, maqsadi, ruhiyati va nutqiy komponentlardan foydalanishida o'ziga xos ko'rinishga ega ekanligi bilan boshqa ijtimoiy guruh vakillaridan keskin farq qiladi.

Tergovchi bir kunlik ish jarayonida o'z kasbdoshlariga nisbatan belgilangan tartibda, ya'ni boshliqlar va bo'ysunuvchilar asosida kommunikativ munosabatda bo'ladi. Bunday munosabatda kasbdoshning lavozimi va unvoni muhim o'rinni egallaydi.

Kommunikativ vaziyatlarda tergovchi adresatga nisbatan savol berish pozitsiyasida turadi. Bunday pozitsiya uning nutqida so'roq ohangi bo'lishini ta'minlaydi. Adresat savollarga javob berishga majbur bo'ladi. Tergovchiga xos sotsiolekt kommunikativ aktdagi nutqning salomlashish, murojaat, muddao va xayrlashuv bosqichlaridagi nutqiy kompozitsiyalarda rasmiylik sezilib turadi. Tergovchi nutqiga xos so'roq gaplarda boshqa kishilar nutqidagi so'roq gaplarga nisbatan vaqt ko'rsatkichlari aniq aytiladi.

Eng asosiysi, tergovchilar so'roq qilish mahoratini o'zlariga kasb qilib oladilar. Chunki so'roq qilish tergovchi faoliyatining keng tarqalgan harakati

hisoblanadi va tergov qilinayotgan voqeaga doir axborot bilan chekelangan bo‘ladi.

Tergovchilarning so‘roq qilish jarayoni o‘ziga xos talab darajasida olib boriladi va o‘z usullariga ega. Bu soha vakillari ana shu usullardan vaziyatga qarab foydalanadilar.

Bu kabi muloqotning kundalik takrorlanishi, har narsaga shubha bilan qarash ularning xususiy xarakteriga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazib, kasb xarakterini shakllantiradi. Natijada tergovchining ishdan tashqari holatlarda ham o‘z suhbatdoshiga ko‘proq savol bilan murojaat qilishi, har narsaga shubha bilan qarashi odat tusiga aylanib qoladi. Xalq orasidagi «tergovchidek tergayveradi» degan iboraning paydo bo‘lishi ana shu harakatlar mevasidir. Masalan, buni quyidagi misol orqali ham ko‘rishimiz mumkin:

– Nima? – dedi Mirvali zarda bilan. – Meni qo‘rqitmoqchimisiz? Ovora bo‘lasiz?

Luqmonov o‘rnidan turib ketdi. Mirvali ham turdi. Bir-birini tepmoqchi bo‘lib turgan ikkita xo‘rozga o‘xshardi ular.

– Menga qara, go‘dak. Seni uch moda bilan ayblayman. Biri kektrdagingdan, biri kindigingdan, yana biri oyog‘ingdan osadigan ayblar. Agar bittasini aytsam, oyoqlarim tagida emaklab yurishga ham rozi bo‘lasan.

Mirvali bo‘shashdi. Modomiki, u shu xil baland kelayoghan ekan, demak qo‘lida rad qilib bo‘lmaydigan dalillar bor.

– Ayting! – dedi Mirvali sal yon berib. – Aytavering. Cho‘zmang.

Ikkovi yana toshga o‘tirishdi. Luqmonov ko‘p mahbuslarning tergoviga qatnashgan, general formasini ko‘rganda qalt-qalt titraganlarning ko‘pini ko‘rgan edi. Ammo manavi hech kimga bo‘yin bermayman deb turgan oliftaning chiranishlari sovun ko‘pigidek yorilib ketishini ham bilardi.

– Boya birinchining oyog‘iga yiqilib iltijo qilgan kampirning o‘g‘lini taniysizmi? Anavi yo‘q bo‘lib ketgan cho‘ponni...

– Bilaman, – dedi Mirvali.

– Shuni siz o‘ldirgansiz! Mana shuning uchun siz bo‘yningizdan osilasiz.

Bu kabi so‘roq jarayoni emas, oddiy suhbatdagi kirish bosqichidan so‘ng adresat savollarga javob berishga majbur bo‘ladi. Tergovchiga xos soqiolekt kommunikativ aktdagi nutqning boshqa bosqichlardagi kabi daromad bosqichida ham rasmiylik sezilib turadi:

« – Xo‘jayin Shahrisabz tomonga o‘tmaydilar. Bir oz dam olib Toshkentga qaytadilar. Ehtimol Jizzaxga qo‘nib o‘tsalar. Men qolaman. Kechlatib ketaman. Sizga aytadigan gaplarim bor.

Mirvali hazil aralash so‘radi:

– Yaxshi gapmi, ishqilib?

– Yaxshi deyolmayman, yomon ham. Faqat ikkovimizga aloqador gap. Yaxshi-yomonligi qandoq tushunishingizga bog‘liq.

Mirvali jiddiylashdi.

– Shundoq kunda meni diqqat qilmay, aytib qo‘ya qolmangiz nima qiladi.

Luqmonov piching qildi:

– Axir militsiya degan har qancha yaxshi gap bo‘lsa ham, avval bir siyosat qiladi-da. Menam axir militsiyalarning kattasiman. Shunaqa gunohdan xoli emasman.

Bu joydan olis tog‘lar, pistazorlar, yong‘oqzorlar quyuq tuman ichida g‘alati bo‘lib ko‘rinib turardi.

– Xo‘sh, gapni nimadan boshlay, og‘ayni? – dedi general.

– Iya, – deya unga qaradi Mirvali. – Shunchalik gap ko‘pmi, nimadan boshlashni bilmayapsiz?

– Ko‘p. Juda ko‘p. Tong otguncha gaplashsak ham tugamaydigan gaplar... Menga qarang, Mirvali, hozir joningiz mening qo‘limdaligini bilasizmi?»

Xalq orasida «bozorchi» nomi bilan ataluvchi savdo xodimlari, ya’ni bozorda faoliyat olib boruvchi savdogarlar o‘ziga xos o‘zbekona savdo nutqiga va

o'z muloqot usuliga egaligi bilan boshqa ijtimoiy guruh vakillaridan gapga chechanligi, o'z molini maqtay bilishi va turli yo'llar bilan «...kun bo'yi ming qiyofaga kirib, dam aldab, dam yalinib, dam maqtab...» xaridor ko'ngliga yo'l topa olishi bilan ajralib turadi.

Muttasil xaridor va sotuvchi o'rtasida faoliyat yuritish natijasida ularning muloqot xulqida ham kasbiy xarakterini belgilab beruvchi muayyan ijtimoiy markerlar shakllanib qoladi. Dallol nutqidagi kommunikativ mavzu va kommunikativ mazmun chegaralangan bo'lakdi. Ya'ni savdo jarayonidagi adresant (dallol) va adresat (muayyan ijtimoiy guruh vakili bo'lishi mumkin) o'rtasidagi kommunikatsiya mavzu va mazmun jihatdan savdo qilinayotgan tovar ustida bo'ladi hamda dallol sotsiolektining joriylanishi uchun asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Demak, ma'lum ijtimoiy sohada faoliyat olib borayotgan sotsium o'z fikrini adresatga yetkazish uchun o'ziga xos verbal va noverbal vositalardan foydalanadi va ular ijtimoiy xoslanishga egaligi bilan ahamiyatlidir. Noverbal harakatlarning o'zi ham sotsiumning muloqot xulqida sezilarli o'rin egallaydi va ularni professional hatti-harakatlar muayyan informatsiya uzatishi bilan nazardan chetda qoldirib bo'lmaydigan hodisalardan biri hisoblanadi.

Turli davrlarga oid ijtimoiy soha vakillari muloqot xulqini tadqiq etishda davrga xos jamiyat mafkurasi va ijtimoiy ekologiyadagi o'zgarishlarni inobatga olish o'rinlidir. Chunki bunday o'zgarishlar kishilar nutqi – muloqot xulqida o'z izini qoldiradi. Bu kabi ta'sirlar har bir ijtimoiy sohaning majud ijtimoiy- ekologik holat bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos mafkuraga ega ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyatda mavjud mafkura ma'lum kasb egalariga xos bo'lgan burch va majburiyatidan kelib chiqadigan dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazadi, ularning ongida kasbiga xos g'o'yalar tizimini mujassamlaydi. Bu holat ijtimoiy guruhlarda turli davrlargsha xos davlat siyosati – mafkurasining xususiyatlariga qarab

shakllanuvchi muloqot xulqining diaxron va sinxron ko‘rinishlarga ega bo‘lishligini ochib beradi.

Sotsiumning qaysi davrga, qaysi ijtimoiy sohaga oid ekanligi uning faqat nutqidan yoki qanday leksik birliklardan foydalanishi bilan emas, balki dunyoqarashi, o‘zini tutishi (kinesika holati), tashqi ko‘rinishi, nutqining shakli (ritmi), talaffuz me‘yori (ton) kabi o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni ramziy ijtimoiy markerlari bilan ham ajralib turadi. Bunday kuzatishlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy sohalarning tadrijiy shakllanishini to‘g‘ri baholash uchun xizmat qiladi.

O‘qituvchilar muloqot xulqida davrga xos xarakter, dunyoqarash sezilib turishi bilan birga, ularning o‘zaro muloqotlari mavzu va mazmun jihatdan boshqa ijtimoiy soha vakillarining o‘zaro muloqotlaridan keskin farq qilib, quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- a) kommunikativ aktda ijtimoiy vazifasiga ko‘ra o‘qituvchilar nutq uslubining qay biridan qay tarzda foydalanishni auditoriyaga qarab belgilaydi;
- b) kommunikativlik ma’rifiy va ma’naviy mazmundan iborat bo‘ladi;
- v) auditoriya uchun namuna ekanligini sezgan holda ahloqiy chegarada qolishga harakat qilinadi;
- g) nasihat, maslahat, tavsiya yoki tanbeh, jazo berishda ota-onalarga o‘xshaydi, auditoriyaga hukmronlik qiladi.

Bularning barchasi o‘qituvchi muloqot xulqi darajasini, ya’ni o‘qituvchi muloqot xulqining xoslanishini ko‘rsatib beradi.

Tergovchilarning o‘ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy funktsiyasi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda kommunikativ munosabatlar Nizom va «Kasb odobnomasi»da belgilab qo‘yilgan qoidalar asosida ro‘yobga chiqadi va quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- a) o‘zlarini rasman tanishtiradi va jiddiy tutishga odatlanib qoladi;
- b) nutqida asosiy o‘rinni so‘roq gaplar egallaydi. Gaplardagi makon va zamon ko‘rsatkichlari esa aniqligi bilan ajralib turadi;

v) kommunikativ vaziyatlarda savol berish pozitsiyasida turadi:

g) daromad bosqichini savol berish pozitsiyasi orqali amalga oshiradi va adresantni soʻroq jarayoniga tayyorlaydi;

d) oʻz kasbdoshlariga nisbatan belgilangan tartibda, yaʼni boshliqlar va buysunuvchilar asosida kommunikativ munosabatda boʻladi.

Dallollar muloqot xulqi ham individual, ham umumiy xususiyatlarga ega boʻlib, ularning savdo kommunikatsiyasidagi faoliyati serqirra, murakkabligi bilan ajralib turadi va ular:

a) oluvchi va sotuvchining tashqi koʻrinishi, fiziologik va ruhiy holatiga qarab kommunikativ pozitsiya tanlaydi;

b) savdo kommunikatsiyasiga kirganda, birinchi oʻrinda oʻz manfaatini koʻzlaydi va savdo jarayonida narx aytish fursati (daromad bosqichi)ni yaxshi ilgʻaydi;

v) oʻzini savdo-sotiqning ustasi sifatida namoyish etishga urinadi.

Shu jihatdan dallollar muloqot xulqi – savdo kommunikatsiyasidagi oʻziga xos professional nutqi boshqa kasb egalari muloqot xulqidan farqlanadi.

Bundan tashqari, jamiyatda turli ijtimoiy qatlamga mansub vakillar nutqi ham oʻz kundalik faoliyatidan klib chiqqan holda, ularning «sotsial tili»ga aylanib qolgan nutqi orqali amalga oshiriladi. Bunda ular oʻz leksikasiga oid murojaat shakllari, voqea-hodisalar, argolardan foydalanadilar. Buni, xususan, diniy ulamolar, peshvolar, diniy mansab sohiblari nutqida quyidagi misol orqali koʻrishimiz mumkin:

«Keksayib munkillab qolgan shayxulislom Boburning yoniga keldi:

–Hazrati oliylari, koʻp gʻam yemang, Parvardigor gʻoyibdan shifo yuborgusidir, – dedi. Tabiblardanki ish chiqmadi, endi Xudo yoʻligʻa Dune molidan tasaddiq qilmoq kerak.

Bobur shayxulislomning niyatiga tushunolmay:

– Qaysi moldan? – deb sohradi.

– Jon omon bo‘lsa javohir topilur. O‘shal... ashxas olmos yaxshi tasaddiq bo‘lg‘ay.

Bobur Jamna ustida kemada o‘ltirganda humoyun keltirib ko‘rsatgan olmosni esladi.

– Ko‘hinurnimi?

Shayxulislom tasdiq ma‘nosida bosh irg‘adi. Bobur hushini bir joyga yig‘ib:

– Taqsir, kimga tasaddiq qilaylik? – deb so‘radi.

Qiymati ulkan oltin xazinalariga barobar keladigan bu olmosni o‘g‘rilardan qo‘riqlab turish uchun ham juda ko‘p navkar kerak edi. Shuni biladigan shayxulislom «menga» deyishga tili bormadi.

– Murtazo Ali mozoriga, – dedi. – Din yo‘liga.» (P.Qodirov)

Din peshvolari, ulamolari nutqida, «inshooloh», «Olloh nasib qilsa», «Xudo xohlasa» kabi so‘z birikmalari, «ahli jamoat», «birodarlar», «mohmin-musulmonlar» kabi murojaat shakllari ko‘p qo‘llanilishi kuzatiladi.

Bob bo'yicha qisqa xulosa

1. Erkak va ayollar biologik va fiziologik jihatdangina emas, balki MX jihatidan ham farqlanadilar. O'zbek erkak va ayollari muloqot xulqidagi farqli jihatlar til sistemasining deyarli barcha sathlarida hamda muloqot jarayonining turli bosqichlarida, jumladan, fatik muloqotda ham, u yoki bu darajada kuzatiladi.

Xususan, o'zbek erkak va ayollari nutqining muloqot xulqida quyidagicha xoslanishini kuzatish mumkin. Ya'ni erkaklarning fatik muloqoti ish yuzasidan, biron bir jiddiyroq masalaga qaratilsa, aksariyat o'zbek ayollari kundalik turmush ikir-chikirlariga oid masalalarni ham mulozamat bilan gapirishga odatlanishgan.

2. Burch va haq-huquqlardagi, mehnat taqsimotidagi farqlar qanchalik katta bo'lsa, MXdagi farqlar ham shunchalik katta bo'ladi.

3. Aksariyat o'zbek ayollari ko'nglining ochiqligi, so'zga chechanligi, dilkash va dilbarligi bilan boshqa xalq ayollaridan ajralib turadilar. Ayniqsa, inson qalbiga muloyimlik bilan yo'l topish bobida o'zbek ayollarining oldiga tushadigan kam topiladi.

3. Bolalar nutqida ham fatik muloqot bilan gapirishning o'ziga xos ko'rinishlarini kuzatish mumkin. Masalan, ota-onalaridan biror narsa undirmoqchi bo'lgan bolalar erkanib: «Dadajon, bir narsa **obering desam, oberasizmi?...**» yoki «**Ayajon, bir gap aytsam ko'nasizmi?...**» Deya gapirishlarining tez-tez guvohi bo'lamiz. Bolalar muloqot bosqichida muddao bosqichiga o'tishdan oldin yaqinlariga nisbatan «jon», «o'zimning» so'zlarini va yaqinlariga nisbatan o'ziga tegishlilikni bildiruvchi «-im» qohshimchalarini qo'shib ishlatishadi: «jon oyijon», «o'zimning oyijonim», «o'zimning buvijonim kabi.»

4. Yoshi o'tganroq, tadbirkor va aqlliyoq kishilar suhbatdoshlariga biror jiddiyroq fikrni aytishdan oldin adresatni suhbat mavzuiga tayyorlab olishga harakat qiladilar.

5. Odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladigan soha – kasb-hunar sohiblari (savdogarlar, artistlar...) muloqot xulqida fatik muloqotga ko'proq murojaat qilinsa, asosiy faoliyatlari muloqot bilan unchalik bog'liq bo'lmagan soha vakillari (chorvadorlar, dehqonlar, ishchilar...) muloqot xulqida fatik muloqotga u qadar e'tibor qaratilmaydi.

UMUMIY XULOSA

Boshqa jonzodlardan tili – nutqi tufayli farqlanib turadigan inson muloqot jarayoni shu qadar rang-barang va xilma-xilki, bu jarayonning tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va boshqa sohalar bilan bog‘liq tomonlarini o‘rganish muttasil davom etmoqda.

Til sohibi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishiga olib keldi. XX asrning 2-yarmidan boshlab shakllangan kognitiv tilshunoslik, lingvokul’turologiya, lingvopragmatika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, neyrolingvistika kabi yo‘nalishlar antropotsentrik tilshunoslikning mustaqil sohalari sifatida rivojlanib bormoqda.

O‘zbeklar muloqot jarayoni, o‘zbek tili materiallari o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosida keng aspektda o‘rganilmagan bo‘lsa-da, kognitiv, psixolingvistik, lingvokul’turologik xarakterdagi bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda, asosan, kognitiv tilshunoslik va lingvokul’turologiyaning nazariy masalalari, o‘zbek tilida muayyan kontsept ifodasi, mazmuniy pertsepsiya, bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari va intertekstuallik muammolari tadqiq etilgan. Matnning kognitiv-semantik, psixolingvistik, lingvokul’turologik xususiyatlari, jumladan, uning yaratilishi va mazmuniy idrokiga oid masalalar esa tilshunosligimizda monografik yo‘sinda tadqiq qilingan emas.

Matn yaratilishining antropotsentrik talqini, asosan, kognitiv va psixolingvistik tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Kognitiv nuqtai nazarga ko‘ra matn – mental tuzilmaning tilga transformatsiyasi bo‘lib, butundan qismga qarab harakatlanuvchi yaxlit tuzilmaning verbal ko‘rinishidir. Kognitiv yondashuv matn yaratilishini “muallif – matn – matndan tashqaridagi voqelik” tamoyili asosida tahlil etishni taqozo etadi. Bunda matnni so‘zlovchi (yozuvchi) maqsadining

ifodasi, nutq yaratilishi mahsuli, tushunish ob'ekti hamda tushunish mahsuli sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Diskursiv tahlilga oid nazariy qarashlarda yaxlit nutqiy tuzilmani tushunish retsipientning muallif matni asosida "o'z matni"ni yaratishi sifatida izohlanib, bunda nutqiy tuzilma yaratish kodlashtirish jarayoni, uning idroki esa dekodlash hisoblanadi. Muallif matni asosida retsipientning lisoniy tafakkurida qayta yaratilgan matn makroqoidalarga ko'ra yuzaga keltiriladi, ya'ni retsipient matnda diskret qismlar mazmunini umumiy, yaxlit tarzda qabul qiladi. Retsipient ongida matn qismlarining lokal mazmuni emas, global mazmuni qayta tiklanadi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan matn yaratish va uning mazmuniy pertsepsiyasi individning nutqiy tafakkuri mahsuli, ob'ektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matnning shakli va mazmunini tadqiq etishda muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari ham e'tiborga olinadi.

Lingvokul'turologik yondashuvlarga ko'ra, matn muayyan xalqning madaniy qadriyatlarni, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlikdir. Xususan, pretsedent birliklar madaniy kodlarni avloddan avlodga olib o'tuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matn-o'xshatishlar, matn-metaforalar, tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo'lgan matnlarni o'rganish muayyan etnosga xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.

Nafaqat turli millat kishilarining, balki turli hududlarda yashovchi bir millatga mansub kishilarning muloqot xulqida ham o'zaro farqlanib turadi.

Inson tabiat qo'ynida dunyoga keladi, o'sib-ulg'ayadi, yashaydi va yana uning bag'riga singib ketadi. Shunday ekan, inson tabiat bilan chambarchas bog'liq va boshqacha bo'lishi mumkin ham emas.

Insondagi o'zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Demak, tabiat ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga ta'sir etadi.

Turli hududlarda yashovchi kishilar muloqot xulqi, eng avvalo, ularning jonli muloqot tili – shevasida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy muhit tarixiy davr taqozosiga ko‘ra shakllanadi.

Hunarmandchilik bilan bog‘liq holda savdo-sotiq ham rivojlangan Marg‘ilon shahri aholisi muloqot xulqida fatik muloqot ancha takomillashgan bo‘lsa, Surxondaryo va Xorazm hududlarida muloqotning bu turiga e‘tibor u darajada emasligini kuzatish mumkin.

Erkak va ayollar biologik va fiziologik jihatdangina emas, balki MX jihatidan ham farqlanadilar. O‘zbek erkak va ayollari muloqot xulqidagi farqli jihatlar til sistemasining deyarli barcha sathlarida hamda muloqot jarayonining turli bosqichlarida, jumladan, fatik muloqotda ham, u yoki bu darajada kuzatiladi.

Xususan, o‘zbek erkak va ayollari nutqining muloqot hulqida quyidagicha xoslanishini kuzatish mumkin. Ya’ni erkaklarning fatik muloqoti ish yuzasidan, biror bir jiddiyroq masalaga qaratilsa, aksariyat o‘zbek ayollari kundalik turmush ikir-chikirlariga oid masalalarni ham mulozamat bilan gapirishga odatlanishgan.

Burch va haq-huquqlardagi, mehnat taqsimotidagi farqlar qanchalik katta bo‘lsa, MXdagi farqlar ham shunchalik katta bo‘ladi.

Aksariyat o‘zbek ayollari ko‘nglining ochiqligi, so‘zga chechanligi, **dilkash** va dilbarligi bilan boshqa xalq ayollaridan ajralib turadilar. Ayniqsa, inson qalbiga muloyimlik bilan yo‘l topish bobida o‘zbek ayollarining oldiga tushadigan kam topiladi.

Bolalar nutqida ham fatik muloqot bilan gapirishning o‘ziga xos ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. Masalan, ota-onalaridan biror narsa undirmoqchi bo‘lgan bolalar erkanib: «Dadajon, bir narsa **obering desam, oberasizmi?...**» **yoki «Ayajon, bir gap aytsam ko‘nasizmi?...**» Deya gapirishlarining tez-tez guvohi bo‘lamiz. Bolalar fatik muloqotda muddao bosqichiga o‘tishdan oldin yaqinlariga nisbatan «jon», «o‘zimning» so‘zlarini va yaqinlariga nisbatan o‘ziga tegishlilikni bildiruvchi «-im» qo‘shimchalarini qo‘shib ishlatishadi: «jon oyijon», «o‘zimning oyijonim», «o‘zimning buvijonim kabi.»

Yoshi o'tganroq, tadbirkor va aqlliyoq kishilar suhbatdoshlariga biror jiddiyoq fikrni aytishdan oldin adresatni suhbat mavzuiga tayyorlab olishga harakat qiladilar.

Odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladigan soha – kasb-hunar sohiblari (savdogarlar, artistlar...) muloqot xulqida fatik muloqotga ko'proq murojaat qilinsa, asosiy faoliyatlari muloqot bilan unchalik bog'liq bo'lmagan soha vakillari (chorvadorlar, dehqonlar, ishchilar...) muloqot xulqida fatik muloqotga u qadar e'tibor qaratilmaydi.

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari” deya nom olgan ushbu yilda biz tanlagan va baholi qudrat tadqiqot olib borgan mavzumizga o'xshash masalalar nafaqat tilshunosligimizning, balki unga tutash bo'lgan barcha fanlar uchun ham o'ta dolzarb ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu mavzudagi izlanishlarni izchil davom ettirish tilshunosligimizning galdagi vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва методологик аҳамиятга молик нашрлар:

1.1. Каримов И.А. Юксак маҳнавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маҳнавият, 2008. – 173 б.

2. Монография, илмий мақола, патент, илмий тўпламлар:

2.1. Алефиренко Н. Спорнқе проблемқ семантики. – М.: Гнозис, 2005. – 326 с.

2.2. Арутюнова Н.Д. Фактор адресата // Известия АН СССР. Сер.лит. и язққа. - Т. 40. - 1981. – № 4. – С. 356- 367.

2.3. Арутюнова Н.Д. Лингвистические проблемқ референции // Новое в зарубежной лингвистике. Логика и лингвистика. - Вқп. XIII. – М.: Радуга, 1982.- С. 5-40.

2.4. Арутюнова Н.Д. Типқ язқковқх значений: Оценка. Собқтие. Факт. – М.: Наука, 1988. – С. 109-152.

2.5. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс: Теория метафорқ. – М.: Прогресс, 1990. – С. 5-32.

2.6. Ахманова О.С., Гюббенет И.В. Вертикалғнқй контекст как филологическая проблема // Вопросқ язқкознания. – Москва, 1977. – № 3.- С. 47-54.

2.7. Ахметжанова З.К. О динамике изменения исследователғского подхода к изучению антропонимов // Вестник ПГУ.- 2010.– № 1. – С. 21–25.

2.8. Баженова Е.Ю. Интегрированнқй подход к анализу процесса порождения текста // Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – №13(54). – С. 31-35.

2.9. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 11–15.

2.10. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентриқ тадқиқ объектй // Ўзбек тили ва адабиётй. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39.

- 2.11. Беџанин В.П. Основк психоллингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – 314 с.
- 2.12. Беџанин В.Н. Психологическое литературоведение. – М.: Генезис, 2006. – 320 с.
- 2.13. Богин Т.И. Типология понимания текста. – Калинин: Изд.КГУ, 1986. – 86 с.
- 2.14. Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2010. – 151 б.
- 2.15. Борџботко В.Г. Принцип формирования дискурса. От психоллингвистики к лингвосинергетике. – М.: Ком. Книга, 2007. – 288 с.
- 2.16. Будаев Э.В. Становление когнитивной теории метафорк // Лингвокультурология. – Вкп. 1. – Екатеринбург, 2007. – С. 16-32.
- 2.18. Горнакова Л.Ю. Роль аллюзивного антропонима в семантике художественного текста // Известия вузов. Сер. Гуманит. науки. – №1. – М., 2010. – С. 62–66.
- 2.20. Горский Д.П. Обобщение и познание. – М.: Мкслг, 1985. – 208 с.
- 2.21. Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: Гнозис, 2003. – 288 с.
- 2.22. Дейк Т.А. ван. Язкк. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1987. – 311 с.
- 2.23. Дейк Т.А. ван. Вопроск грамматики текста / Пер. с англ. Т.Д.Корелфской // Новое в зарубежной лингвистике. – Вкп. VIII. – Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978. – С. 259-356.
- 2.24. Демџянков В.З. Политический дискурс как предмет политологической филологии // Политическая наука. Политический дискурс: История и современнке исследования. – М., 2002. – № 3. – С. 32-43.
- 2.25. Демџянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода// Вопроск язккознания.- 1994.– № 4. – С. 17-33.
- 2.26. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – 157 с.

- 2.27. Залевская А.А. Текст и его понимание. – Тверь: ТвГУ, 2001. – 171 с.154.
- 2.28. Зорькина О.С. О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. – Новосибирск, 2003. – С. 205-210.
- 2.29. Зусман В.Г. Концепт в системе гуманитарного знания: Понятие и концепт // Вопросы лингвистики. – 2003. – №2. – С.44-71.
- 2.30. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008. – 159 б.
- 2.31. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий матн таҳлили. – Т.: Камалак, 2016 – 464 б.
- 2.32. Кузьмина С.Е. Понятие “синтаксический концепт” в лингвистических исследованиях // Вестник ЧелГУ. – 2012. – №17 (66). Филология. Искусствоведение. – С. 87-90.
- 2.33. Лакофф Дж. Лингвистические гештальты // Новое в зарубежной лингвистике. – Вкл Х. – М.: Прогресс, 1981. – С. 350-368.
- 2.34. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем / Пер. Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М., 1990. – С 387-415.
- 2.35. Леонтьев А.А. Речевая деятельность // Основы теории речевой деятельности. – М.: Наука, 1974. – С. 21-28.
- 2.36. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари). – Андижон, 2012. – Б. 212-220.
- 2.37. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24.
- 2.38. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
- 2.39. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 3-8.

- 2.40. Маҳмудов Н. Фан тили ва тил фани // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 3-10.
- 2.41. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. – Б. 3–12.
- 2.42. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 94 б.
- 2.43. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент, 1978. – 82 б.
- 2.44. Национально-культурная специфика речевого об­у­е­ния народов СССР. – М.: Наука, 1982. – 152 с.
- 2.45. Нишанов В.К. Феномен понимания: когнитивный анализ. – Фрунзе: Илим, 1990. – 228 с.
- 2.46. Новиков А.И. Семантика текста и её формализация. – М.: Наука, 1983. – 215 с.
- 2.47. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 233 б.
- 2.48. Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2009. – № 6. – Б. 104-107.
- 2.49. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 358 б.
- 2.50. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 371 б.
- 2.51. Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизм назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 10-19.
- 2.52. Основы теории речевой деятельности. – М.: Наука, 1974. – 368 с.
- 2.53. Петров В.В. Философские аспекты референции // Новое в зарубежной лингвистике. – Вкп. XIII. – М.: Радуга, 1982. – С. 406-414.
- 2.54. Пегго-Гро Н. Введение в теорию интертекстуальности. – М.: ЛКИ, 2008. – 240 с.

- 2.55. Раҳимов А. Тилни парадигмалар асосида ўрганиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 2. – Б. 20-25.
- 2.56. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.
- 2.57. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – 285 б.
- 2.58. Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – 320 с.
- 2.59. Тоҳиров З.Т. Таҳрир мантиқи. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 238 б.
- 2.60. Turniyozov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. – 96 b.
- 2.61. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2004. – 496 б.
- 2.62. Хегай В.О. О понятии дискурс // Филология масалалари. – Тошкент, 2006. – № 2 (11). – С. 63-66.
- 2.63. Хоанг Фэ. Семантика вк сказвания // Новое в зарубежной лингвистике. – Вкп. XXIV. Компьютерная лингвистика. – М.: Прогресс, 1989. – С. 399-405.
- 2.64. Хрестоматия по истории психологии. – М.: Изд-во МГУ, 1980. – 356 с.
- 2.65. Человеческий фактор в язкк. Язкк и порождение речи. – М.: Наука, 1991. – 238 с.
- 2.66. Чувакин А.А. Теория текста: объект и предмет исследования // Критика и семиотика. - Вкп. 7. – М., 2004. – С. 7-11.
- 2.67. Шведова Н.Ю. Русский язкк: Избраннке работк. – М.: Язкки славянской културк, 2005. – 650 с.
- 2.68. Ғуломов А., Асқарова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1961. – Б. 142.

3. Фойдаланилган бошқа адабиётлар:

3.1. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – 24 б.

3.2. Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 320 б.

3.3. Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2008. – 26 б.

3.4. Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент: ИЯЛ АН РУз, 1984. – 259с.

3.5. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2007. – 46 б.

3.6. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2000. – 47 б.

3.7. Турниёзова Ш. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 26 б.

3.8. Худайберганова Д. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: ИЯЛ АН РУз, 1989. – 22 с.

3.9 Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик таҳлили. Филол. фан. док. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2015. – 102 б.

3.10. Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан.д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 48 б.

3.11. Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009. – 314 б.

3.12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б.

3.13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд.– Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б.

3.14. Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2009. – 25 б.

3.15. Хайдаров Ш.М. Бадиий матнда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2011. – 26 б.

3.16. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2004. – 283 б.

3.17. [http://www. Nbuuv. Gov. ua/portal/Soc-Gum/ls 2008-17/dorofeev/pdf.:](http://www.Nbuuv.Gov.ua/portal/Soc-Gum/ls%2008-17/dorofeev/pdf.) Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики.